

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 378.1

SHODIYEV BEKTOSH FAXRIDDINOVICH

**TALABALARNI MA‘NAVIY SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIIY
INSTITUTLAR INTEGRASIYASI**

5A 140804 – Ijtimoiy pedagogika

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga

Ilmiy rahbar:

ruxsat berildi.

«Pedagogika» kafedrası mudiri
prof. Hasanova K. _____

Prof. Shodiyev N. _____

« _____ » _____ 2012 y

M.O‘.

Samarqand – 2012

K i r i s h

Tadqiqotning dolzarbligi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma‘naviy ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qarorida “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish yoshlarimizni turli mafkuraviy hujumlardan himoya qilish, hayotga ongli munosabatini shakillantirishni” alohida ta‘kidlab o‘tilgan.

Ma‘naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Chunki, ma‘naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o‘z navbatida shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Prezidentimizning sog‘lom avlod konsepsiyasida shaxsning jismonan, ruxan baquvvat bo‘lishi, yuksak bilim, ma‘naviyat, tafakkur va fidoyi Vatanparvar bo‘lishi kabi talablarga javob beradigan avlodni tarbiyalash nazarda tutiladi. Shuning uchun ham yoshlarimizni ma‘naviy shakillantirishda xalqimizning boy milliy urf-odatlarini, qadriyatlarimizga va an‘analarimizga amal qilish ehtiyoji tobora ko‘chaymoqda. Shu o‘rinda yurtboshimizning quyidagi fikrlari o‘rinlidir. Yoshlar ongini zaharlashga qaratilgan turli taxdidlar, ma‘naviy xurujlar avj olgan bugungi murakkab sharoitda, hushyorlik va ehtiyotkorlik zarurligini barchamiz angladik va his etmokedamiz. Chunki “ommaviy madaniyat” ostida yoshlarni zaharlashga urnayotgan kuchlar har birimizni tashvishga solmoqda. Shuning uchun yoshlar o‘rtasida ma‘naviy-ma‘rifiy targ‘ibot tadbirlari tashkil etilib, ularning yot g‘oyalar ta‘siriga tushib qolishini oldini olish choralarini ko‘rish bugunning dolzarb vazifalaridandir. Yurtboshimiz “Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch” asarida “Agarki biz bunday xatarlarga qarshi o‘z vaqtida qat‘iyat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga ham shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlarimizni o‘z girdobiga tortib ketishini, oqibatda ularni ota-ona, oila, el-yurt oldidagi burchi va ma‘suliyatini o‘ylamaydigan, faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan xudpisand kimsalarga aylanib qolishi mumkinligini tassavvur qilish qiyin emas. Mana shu achchiq haqiqatni yurtimizdagi har bir, inson har qaysi ota-

ona, eng muhimi, har qaysi yigit-qiz chuqur anglab olishini istardim. Takror aytishga to'g'ri keladi ota-onalar, ustoz-murabbiylar bu masalada xushyorlikni yuqotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo'lmasligimiz zarur"- deb ta'kidlaydi [3,5]. Darhaqiqat, yoshlar ma'naviyati qanchalik yuksak bo'lsa u shunchalik yengilmas kuchga aylanadi.

Yoshlarni yangicha tafakkur, sog'lom fikr yuritishi va ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lib kamol topishida oila, mahalla, ta'lim muassasalari, televideniye, matbuot va keng jamoatchilikning o'rni beqiyosdir.

Barkamol avlod xalqimiz orzu qilayotgan, intilayotgan buyuk kelajakning kafolatidir. Bunga erishish juda murakkab jarayon. Shuning uchun ma'naviy tarbiya masalasiga e'tibor berish va uni to'g'ri anglash barchamizning vazifamizdir.

Mamlakatimizni dunyodagi rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarilishi ko'p jihatdan yosh avlodni kamol tortirishga, ularni ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashga bog'liq.

Tadqiqotning maqsadi - talabalarda ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligida ma'naviy shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti – talabalarni ijtimoiy institutlar hamkorligida ma'naviy shakllantirishi jarayoni.

Tadqiqot predmeti – talbalarda ma'naviy shakllantirishning mazmuni, shakllari, metodlari.

Tadqiqotning metodologik asoslari – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'limga oid qarorlari, dasturlari. Prezident I.A.Karimov asarlarida olg'a surilgan g'oyalar, Respublikamizning yetakchi olimlarining ishlari.

Tadqiqot metodlari – tadqiqot muammosiga doir pedagogik, psixologik, metodik, falsafiy adabiyotlarni mazmunini nazariy jihatdan tahlil qilish.

Tadqiqot maqsadga muvofiq ravishda dissertasiya oldiga qo'yilgan vazifalar:

1. Talabalarda ijtimoiy institutlar hamkorligida ma'naviy shakllantirishining mavjud holatini o'rganish.
2. Talabalarni ma'naviy shakllantirishiga xizmat qiluvchi obyektiv va subyektiv omillarni aniqlash.
3. Talabalarni ma'naviy shakllantirishga xizmat qiluvchi maqbul shakl, metod va vositalarni belgilash.
4. Talabalarni ijtimoiy institutlar hamkorligi asosida ma'naviy shakllantirish samaradorligini tajriba-sinovdan o'tkazish va uni taxlil qilish.
5. Talabalarni ijtimoiy institutlar integrasiyasi asosida ma'naviy shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat samaradorligini ta'minlashga oid uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy farazi - talabalarni ijtimoiy institutlar hamkorligi asosida samarali ma'naviy shakllanishiga muvaffaqiyatga erishish mumkin, agarda:

- ma'naviy shakllantirishning ilmiy asoslari ishlab chiqilsa;
- talabalar ijtimoiy institutlar hamkorligida ma'naviy shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat mazmun, shakl, metod va vositalar tizimi asoslansa;
- ijtimoiy institutlar hamkorligida ma'naviy shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat samaradorligini ta'minlashga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilsa;
- talabalarda ijtimoiy institutlar hamkorligida ma'naviy shakllanishga nisbatan yangicha yondashuv qaror topsa;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi - disertasiyada talabalarda ijtimoiy institutlar hamkorligida ma'naviy shakllantirish muammosi pedagogik yo'nalishda mustaqil tadqiqot sifatida tadqiqot etiladi.

- tadqiqot natijasida talabalarni ijtimoiy institutlar hamkorligida ma'naviy shakllanishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni asoslandi;
- mazkur faoliyat samaradorligini ta'minlovchi shakl, metod va vositalar ta'xis etildi;
- talabalarni ma'naviy shakllanishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar berildi.

I BOB. Ta'limni ommaviy axborot vositalari bilan integrasiyasi talabalar ma'naviyatini shakllantirish vositasi sifatida

1.1. Ta'limni integrasiyalash muammo sifatida

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da «O'zluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integrasiyalashtirishning puxta mexanizmini ishlab chiqish va joriy etish» zarurligi alohida ta'kidlangan. Ta'lim jarayonida integrasiyalashgan fan dasturlaridan foydalanish jamiyatimizda sodir bulayotgan ilmiy texnika va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning shiddatli sur'atlariga bog'liq. U ta'lim oluvchi shaxsni barkamol bo'lib shakllanishiga, yosh avlodni yuksak ma'naviyatli, ona Vatanga va xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalashga kumaklashadi.

O'zluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishning tamomila yangi rezirvlarini yaratishga va joriy etishga imkoniyatlar yaratadi. Shu nuqtai nazardan ilmiy-pedagogik tadqiqot va o'qtuvchilarning amaliy faoliyat tizimida o'quv fan (predmet)larining integrasiyalash muammosi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv-tarbiya tizimi talabalarini «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'kidlanganidek, "... rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar..." [2,39] etib tayyorlashni kafolatlashi zarur.

Mazkur muammoni hal qilish yullaridan biri ijtimoiy institutlar integrasiyasini to'g'ri yo'lga quyishdir.

Interaktiv yondashuv Abduqunddusov O.A, Belyayeva A.P, Bezrukova V.S, Qurbonov Sh, Jurayev R.X, Rashidov X.F va b.k ishlari muhokama qilingan [6,7,25,8,19].

Qomusiy lug'atda integrasiya (lotincha integratio- tiklash, tuldirish ma'nosini anglatib, integer- bir butun, alohida qismlarni bir butun holatga keltirish so'zidan olingan) tushunchasi alohida tabaqalashtirilgan tizim, organizmning qismlari va funksiyalari holatini hamda shunday holatga olib keluvchi jarayon tushunchasini anglatadi. [17,494].

N.I Kondakov o'zining "Ma'qiqiy lugat-ma'lumotnomasi" [10] kitobida integrasiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Integrasiya qanday bo'lmasin elementlarni yagona bir butunga birlashtirish va qandaydir yaxlitlikni tiklashdir".

Yu.S Tyunikov integrasiya tushunchasiga quyidagi belgilarni kiritadi [2,198]:

1. Integrasiya o'zaro aloqada bo'lgan turli elementlar asosida quriladi.
2. Integrasiya o'zaro aloqadagi elementlarning sifat va son o'zgarishi bilan bog'liq.
3. Integrativ jarayon mantiqiy mazmun asosiga ega.
4. Integrativ jarayon o'zining tuzilmasiga ega.
5. Pedagogik yo'naltirilganlik va uning nisbatan mustaqilligi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, integrasiya pedagogik jarayonda qo'yilgan maqsadga bog'liq holda yaxlit tizimni ifoda etuvchi bilimlarni, usullarni va ular bilan o'zaro bog'liq bo'lgan bilish jarayonlarini o'quv-bilish muammolarini, o'qishtish vositalari hamda metodlarini qamrab oladi.

A.P. Belyayevaning ta'kidlashicha, "Ta'lim mazmunini integrasiyalash deganda bilimlar, faoliyat usullari va turlarining yaxlit tizim sifatida o'zaro aloqa, o'zaro bir-biriga singishi, o'zaro ta'sir jarayoni va natijasi tushuniladi" [7,35].

V.S. Bezrukovaning ta'rifi bo'yicha pedagogik interasiya – bu ilmiy integrasining bir ko'rinishi bo'lib, uning ilmiy integrasiyadan farqli xususiyatlarini e'tiborga olgan holda pedagogik nazariya va amaliyot doirasida amalga oshiriladi [8, 5-25].

R.X. Jurayevning ta'rifi bo'yicha integrasiya - bu ayrim bo'lak, qismlarning birlashishi, bir butun bo'lishidir [9,80]. Ilmiy tadqiqotda integrasiya o'zaro bog'liq bo'lmagan har xil elementlarni bir butun yaxlit holda qarash deb to'shuniladi. Integrasiya obyektiv sabablarga ko'ra har xil elementlarni birlashtirish va ularni bir butun holda qarash natijasida sodir etilayotgan tizim sifatida etirof etiladi.

Yuqorida bayon qilinganlaridan ko'rinadiki, integrasiya pedagogik jarayonda quyilgan maqsadga bog'liq holda yaxlit tizimni ifoda etuvchi bilimlar,

usullar va ular bilan o'zaro bog'liq bo'lgan bilish jarayonlari, o'qish-bilish muammolari, o'qitish vositalari hamda metodlarni qamrab oladi.

Ijtimoiy institutlar integrasiyasi talabalar ma'naviyatini yuksaltirishni ta'minlaydigan tizimning komponentlarini o'zaro bog'liqligi va o'zviyligi kabi xususiyatlarni yuzaga keltiradi.

Ilmiy pedagogik adabiyotlarda integrasiyani tizim tashkil etuvchi omillari sifatida g'oya, hodisa, tushuncha, predmet va x.klar muhokama qilingan [6,7,8,9].

R.M. Medetova fanlararo o'zviy masalasiga to'xtalib, shunday yozadi: "Fanlararo o'zviylik – bu o'quv tarbiya jarayonining mazmunida, shakllarida va usullarida o'z ifodasini topgan real hayotning obyektlari, hodisalari va jarayonlari o'rtasida sintezlash, integrasiyalashni ifodalash uchun ishlatiladigan pedagogik kategoriyadir" [18,93-96].

R.K Choriyev nazariy va amaliy o'quv faoliyatining integrasiyasi masalalarini muhokama qilib, uni 3 bosqichda amalga oshirish, ya'ni integrasiya maqsadlarini va ko'tiladigan natijalarni aniqlash; integrasiyalash obyektlarini aniqlash va ularni tahlil qilish; yangidan yuzaga kelgan integrativni sifat va qo'llash samaradorligini tekshirish lozimligini ta'kidlagan [27, 24].

1.2. Ommaviy axborot vositalari orqali talabalarni ma'naviy shakllantirishni ilmiy adabiyotlarda o'rganishning hozirgi holati

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da uning maqsadi «...ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir»[2,39], deb alohida ta'kidlangan.

Prezident I.A.Karimov yosh avlodda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish uchun ular orasida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot-tashviqotining samarasini oshirish zarurligini ta'kidlab, «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» nomli asarida shunday yozadi: «Ma'naviyat haqida har qancha da'vatlar, muhim nazariy fikrlar bildirilmasin, agar ularni jamiyat ongiga singdirish uchun doimiy ish olib bormasak, bu boradagi faoliyatlarimizni har tomonlama puxta o'ylangan, tizimli ravishda tashkil etmasak tabiiyki, biz ko'zlagan maqsadga erisholmaymiz, ya'ni inson qalbiga yo'l topolmaymiz.

Shuning uchun ham biz bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasidan boshlab matbuot, televideniye, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san'atiga, bir so'z bilan aytganda insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir yetkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma'naviy extiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur»[4,129].

«Milliy istiqlol goyasi: asosiy tushuncha va tamoillar» risolasida milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz qalbi va ongiga singdirishning «ta'lim va tarbiya, fan va ilmiy muassasalar; madaniyat va ma'naviyat muassasalari; adabiyot va san'at; din; jismoniy tarbiya va sport; urf-odat, marosim va bayramlar; oila, mahalla va mehnat jamoalari; siyosiy partiyalar; nodavlat tashkilotlar; ommaviy axborot vositalari» kabi 13 vositasi ko'rsatilgan[5, 33].

Shu munosabat bilan ushbu tizimning har bir komponentni hamda ularning o'zaro aloqadorlik (integrasiyasi) dagi faoliyatini talabalarning ma'naviy shakllantirishdagi samarasini o'rganish muhim vazifa hisoblanadi.

Ma'naviyat, milliy g'oya, mafkura va milliy qadriyatlarga bag'ishlangan anjumanlar va adabiyotlarda bo'lajak o'qituvchilarni milliy istiqlol g'oyasi asosida ma'naviy shakllantirish buyicha yuqorida ko'rsatilgan vositalar orasidan eng asosiy, qudratli va ta'sirchan, ijtimoiy fikrni o'zgartiradigan vosita sifatida ommaviy axborot vositalari (OAV) nisbatan ko'proq o'rganilgan. Jumladan, keyingi yillarda talaba-yoshlarni ma'naviy, mafkuraviy tarbiyalashda ommaviy axborot vositalarining rolini yoritishga bag'ishlangan izlanishlarga e'tiborni kuchayganini ta'kidlash joizdir. Ular jumlasiga M.Abduraxmonovning «Matbuot va targ'ibot: an'ana, yangilik va muammolar»[5.36-38], K.Zokirovaning «Oilada farzandlarning komil shaxs bo'lib yetishtirishda televideniyaning roli» [11.71-73], E.Iskandarovning «Ochiq axborot tizimi sharoitida talaba-yoshlarda mafkuraviy imunitetini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari» [13.71-73], X.Maxmudovanning «Yoshlar tarbiyasida ommaviy axborot vositalarining roli»[15.175-176], A. Sohibovning «Ommaviy axborot vositalari ma'naviy-axloqiy tarbiya manbalari»[22.142-145], R.Rejepovning «Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni» [21.170-171], K.Farfiyevning «Yoshlarning xulq-atvorlari o'zgaruvchanligida telekursatuvlar» va boshqalarni kiritish mumkin.

Mazkur tadqiqotlarda milliy istiqlol g'oyasini targ'ibot-tashviqot qilish orqali xalqimiz ongiga va qalbiga ma'naviyatni singdirish buyicha asosan markaziy OAVlarining imkoniyatlari yoritilgan, xolos. Ularni ruyobga chikarishning shakl, metod va vositalari esa e'tibordan chetda qolgan desak xato bo'lmaydi.

Jo'mladan M.Abduraxmonov "Matbuot va targ'ibot: an'ana, yangilik va muammolar" mavzusidagi maqolasida xalqimiz asrlar davomida pok e'tiqod deb bilgan islom ma'naviyati va uning matbuot nashrlari sahifalari aks ettirilishini muhokama qilgan. Zero I.Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek: "Islom ota-bobolarimiz dini, musulmonlarning ongi turish-turmushini mohiyat, hayotning o'zidir."

Shu munosabat bilan muallif "Sharq yulduzi" jurnali sahifalarida Qur'oni Karimning o'zbekcha matni (Aloddin Mansur tarjimasida), Jaloliddin Rumiyaning islomiy qadriyatlar talqinida "Fixi" mofiq (Ichingdagi ichingdadur yoki Mohiyat)

asarini, Imom al-Buxoriy saboqlari (Ulug'bek Abdul Vahob tarjimalarida) nashr etilishi hamda "Hidoyat" jurnalidagi go'zal islomiy qadriyatlarni ro'yobga chiqarilayotganligini ta'kidlaydi. shuningdek, u "Muloqot" jurnalida "Muqaddas kitoblar", "Muqaddas shoirlar" turkumida berilib borilgan materiallarni ma'lum ma'noda keng mohiyatini o'quvchilarga oqdan qorani haqiqiy sof islomdan aqidaparastlikni farqlashda katta yordam berilayotganligini ko'rsatadi.

G'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashda "Tafakkur" jurnali samarali faoliyat ko'rsatayotgan jamiyatimizda milliy dunyoqarash shakillanishida, ijobiy ta'sir etmoqda. Uning sahifalarida "Millat va ma'naviyat", "Tarix va taraqqiyot", "Buyuklik timsollari", "Sizni suygan sultonlar" ruknida berilgan maqolalar o'quvchilarni doim mulohaza mushohadaga chorlab kelgan.

"Muloqot" jurnalining rang-barang ruknlarida nashr etilgan maqolalar ham asrlar davomida tazyiqlarga duchor bo'lgan milliy ma'naviyatni asl egasiga qaytarish, xalq ma'naviyatini yanada rivojlantirish, boyitish va jamiyatda erkin fikr muhitini yuzaga keltirish masalalariga bag'ishlangan.

M.Abdurahmonov ommaviy axborot vositalarida milliy o'zlikni anglash, ma'naviyat masalalarini yoritilishi ustida so'z yuritib, birinchi galda xalqimiz asrlar davomida pok e'tiqod deb hisoblagan islom ma'naviyati va uning matbuot nashrlari sahiflarida aks ettirilishi holatiga alohida to'xtaydi. Dinning hayotimizdagi turli xatolardan poklanishga, yuksak axloqiy fazilatlarni qaytadan xalq qalbida uyg'otib, jonlantirish rolini alohida ta'riflab "Sharq yulduzi" jurnalida muallif Qur'oni Karimning o'zbekcha matni bosilganini, Jololiddin Rumiyning islomiy qadriyatlarimizga bag'ishlangan "Fixi mofiq" (Ichingdagi ichingdadur yoki Mohiyat asarini) Hidoyat jurnalida "Imom al-Buxoriy saboqlari"ni nashr etilganini ijobiy bir hol sifatida ta'kidlaydi.

Shuning birlan bir qatorda matbuot sahifalarida, televideniye orqali namoysh etiladigan ko'rsatuvlarda hamda o'tkaziladigan turli tuman ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar diqqat markazida taraqqiyot, madaniy merosimizni o'rganish bo'lib, hozirgi kunimizni, biz bilan hamnafas bo'lib yashayotgan zamonamiz kishilarining hayot, mehnat faoliyatini o'rganish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish,

istiqlolimizning iqtisodiy, ma'naviy poydevorini mustahkamlashda ulardan foydalanishga cheksiz ravishda e'tibor berilmayotganligi ta'kidlaydi.

O'zbekiston milliy universiteti o'qituvchisi X.R.Maxmudova "Yoshlar tarbiyasida ommaviy axborot vositalarning roli" mavzusidagi maqolasida Respublikamizdagi ommaviy axborot vosita (OAV)lari jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida hamda yetakchi o'rin tutib borayotganligini, gazeta va jurnallar, radio va televideniye bugungi kunda yoshlar uchun o'ziga xos aloqa vositasi hamkorlik ko'zgusi, haqiqat jarchisi bo'lib xizmat qilayotganligi yoshlar fikrini shakllantirishda, milliy mafkuramizni yoshlar ongiga singdirishda katta ahamiyatga ega. Bu shubhasiz OAV xodimlari zimmasiga qator talablarni yuklaydi. Chunki, ochiq mafkuraviy kurashlar davri hisoblangan XX1 asrda OAV xodimlari yoshlar uchun zararli har bir narsani kuchli tahdid ostiga oluvchi, kuzi ziyrak, qulog'i sergak, so'zi o'tkir muayyan kuchga aylanishi zarur. Endilikda har bir OAV xodimi o'z oldiga men tayyorlagan ko'rsatuv qanday natija berayaptimi kabi savollarni o'z-o'ziga qayta-qayta berishi lozim.

Bugungi kunda televideniye OAV orasida yetakchi o'rinni egallab borayotganligini, u yomonlikning nima uchun yaxshi ekanligi va u boshqalar uchun qanday foyda va ziyon keltirishini aniq misollar orqali ko'rsatish imkoniyatini hisobga olib, maqola muallifi OAV xodimlaridan talaba yoshlarda tahliliy qobiliyatni rivojlantirish, milliy istiqlol g'oyasini mustahkamlash, xalqaro va Respublikamiz hayotiga qiziqishini ortirishda, ularni ba'zan fikrlar dunyosida chalg'itmasliklarining yo'l-yo'riqlarini ko'rsatish vazifasini qo'yadi. Shuningdek, muallif yoshlar bilan tez-tez matbuot konferensiyalari, taniqli adabiyot va san'at, fan, texnika va ishlab chiqarish xodimlari bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali o'zaro fikr almashish, ijodiy fantaziya, bilimdonlik, voqealarga tarixiy va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

OAV hayotda yuz berayotgan yangilanish va o'zgarishlarga yoshlarni ongli munosabatini uyg'otuvchi, xolislik va haqqoniyat prinsiplariga tayanib faoliyat ko'rsatadi.

Haqqoniyat prinsiplariga tayanib faoliyat ko'rsatishda to'rtinchi hokimiyat hisoblangan OAV turli xil fikrlar rang-barang qarashlar va yondashuvlarga keng yo'l ochib beradi.

A.Sohibov "Ommaviy axborot vositalari-ma'naviy-axloqiy tarbiya minbari" mavzusidagi maqolasida O'zbekiston televideniyesi orqali ulug' allomalar, mutaffakirlarning ijodiy faoliyati, jahon sivilizasiyasiga qo'shgan buyuk hissalar, mashhur ma'rifatparvarlarimizning odob-axloqqa oid qarashlari ularning asarlaridan parchalarni muntazam ravishda berib borilayotganligi, shuningdek o'zbek adiblari hamda chet el taraqqiyparvar yozuvchilarining asarlari asosida tayyorlangan spektakllarni namoyish qilayotganligi xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [22,142-149].

O'zbekiston radiosi ham ijtimoiy-siyosiy eshittirishlari orqali xalqimiz, yoshlar oldida milliy istiqlol g'oyasi, urf-odat, an'analarimizni mazmun mohiyatini yoritib berishga qaratilgan hamda "Kelajak tongi", "Alanga" kabi eshittirishlar orqali esa yangi tafakkur g'oyalari tarbiya va ta'limdagi ilg'or tajribalarni yoritishga kirishilganligini ijobiy baholash zarur.

Ayni paytda muallif axborot olamida yangiliklar bilan jihozlangan xurujlar avj olayotganligini, ular yoshlar ongi va qalbini vayronkor, axloqsiz g'oyalari bilan zaharlashga kirishayotganligini ta'kidlash zarur.

Ayni paytda muallif axborot olamidagi yangiliklar bilan niqoblangan xurujlar avj olganligini, ular yoshlar ongi va qalbini vayronkor, axloqsizlik g'oyalari bilan zaharlashga qaratilganligini tobora kuchayib borayotgan jangari filmlarning yoshlarni turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizliklarni o'rganayotganliklari, bular esa ularni qalbida tamag'arlik, zo'ravonlik, axloqsizlik kabi salbiy illatlar joy olayotganligini ta'kidlab, ota-onalar, ta'lim-muassasalari, tarbiyachilar oldiga aniq vazifalarni qo'ygan.

A.Sulaymonov, Z.Sulaymonova "Ma'naviyat masalalarining tarbiyaviy imkoniyatlari" mavzusidagi maqolasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1998 yil 12 yanvardagi "Muzeylar faoliyatini takomillashtirish

to'g'risida"gi Farmoni, ularda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarni yangi sifat bosqichga ko'tarishni talab etishini ma'lumotlar va ayrim muzeylarning tarkibiy qismi-devoriy suratlar xususida fikr yuritganlar. Shu munosabat bilan mualliflar ma'naviyat, madaniyat va ma'rifat koshonasi bo'lgan muzeylar, qasrlarning devorlariga ishlangan devoriy suratlarning tasviriy san'at tarixida tutgan o'rni, san'atning bu turi Afrosiyob xarobalaridan topilganini, Amir Temur va temuriylar davrida juda taraqqiy etganligini, zamonaviy O'zbekiston muzeylari misolida ham devoriy suratlar an'analari yangi uslublar bilan boyigan holda davom etayotganligi haqida fikr yuritganlar. Sharq minatura san'at an'alarining zamonaviy talqinda davom ettirib, Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi, o'zbekiston badiiy akademiyasi san'atshunoslik instituti, o'zbekiston tarixi muzeyi, temuriylar tarixi davlat muzeyi va boshqalarni vorisiylik an'analari asosida barpo etilib millat tarixi, qadriyatlarimizni saqlanishi, boyitilishi, avloddan-avlodga o'tishini ta'minlash barobarida, unga tashrif buyurganlar hamda vertual tashrif buyurganlarni milliy tariximiz, badiiy qadriyatlarimiz, milliy g'oya prinsiplariga sadoqatli qilib tarbiyalashda muayyan darajada ta'sir ko'rsatishi shubhasiz ekanligini ta'kidlaydi.

B.K.Xurramova, D.Namozov "Muzeylarda zamonaviy informasion texnologiyalarni qo'llash masalalari" mavzusidagi maqolada insoniyat tarixida vorisiylik tushunchasi muhim ahamiyat kasb etishi shu an'alar, qadriyatlarning saqlanishi, boyitilishi, avloddan avlodga o'tishda muzeylar eng muhim funksiyani bajarishini ko'rsatadi. Ma'lumki muzeylarga axborot texnologiyalarni qo'llash xalqimizni ming yillar tarixga ega moziydan aks sado beruvchi muzeylarimizni dunyo e'tiboriga havola etish, ularda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan ommani voqif etish, axborotlarni qayta ishlash barobarida muzeylar o'zlarining an'anaviy faoliyatini to'ldirib, ular ham real tashrif buyuruvchilar ham vertual tashrif buyuruvchilarga xizmat qilishlari uchun imkon beradi. Shunigdek, informasion texnologiyalar bir tomondan dunyo muzeylarini yagona tarmoqqa ulanishiga xizmat qiluvchi global tarmoqqa ulanishiga xizmat qiluvchi global

tarmoqni vujudga keltirsa, ikkinchi tomondan muzeylar o'zlarini sahifa va web saytlariga ega bo'lishlariga imkon beradi.

Shu munosabat bilan SamDUning "Arxeologiya", "Zoologiya", "Alisher Navoiy", "Minerologiya" kabi muzeylari faoliyatini kengaytirish muzeyga tashrif buyuruvchilarning ko'paytirish maqsadida ularni web saytlarini yoritish orqali dunyoning ko'zga ko'ringan muzeylari bilan axborot almashib turish huquqiga ega bo'ligini ta'minlash vazifasi turibdi.

R.Rejenov va A.Karimov "Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishda ommaviy axborot vositalarini o'rni" mavzusidagi maqolasida OAV milliy g'oyani halqimiz, ayniqsa yoshlar ongiga singdirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganligi haqida to'xtalib, O'zbekiston televideniyesi birinchi kanalida "Turmush chorrahalarida" mavzusida berilgan videofilmlar ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni, turli millatlar o'rtasidagi totuvlikni targ'ib qilib yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini ta'kidlaganlar.

Shuningdek, mualliflar Respublikamiz OAV odamlarni adashtiradigan, ularni o'z manfaatlariga zid harakat qilishga undaydigan insonni boshqarishga, uning ustidan hukumronlik qilishga o'zligini anglashga qaratilgan xorijiy davlatlar axborot xurujiga, ma'naviy tahdidlarga qarshi kurash olib borilayotganligini alohida ta'kidlaganlar.

Ammo, ilmiy-texnika taraqqiyoti tufayli keyingi yillarda fuqarolarimiz xonadonida kabel televideniyealar, parobalik antenalarni, kechayu-kunduz ular orqali jangarilik, milliy urf-odatlarimizga mos kelmaydigan fohishabozlik, hayosizlikni targ'ib tashviqot qiladigan filmlarni tomosha qilishi tufayli yoshlar o'rtasida toshbag'irlik, zo'ravonlik, hayosizlik kuchayganiga sabab bo'lmoqda. Buni oldini olish ko'p jihatdan ota-onalar saviyasiga bog'liqligini ko'rsatib beradi. Mana shunday salbiy targ'ibotlarga qarshi kurashda, ularga munosib zarba berishda "g'oyaga qarshi g'oya bilan kurash" tamoyiliga mos ravishda ish olib borishni ta'kidlaydi.

E.Xoliqov "Oyna ortidagi yolg'on dunyo" maqolasida axborotni tezkor uzatish, aholini barcha qatlamlarini qamrab olish, videotasvir va tovush

uyg'unlashuvini yuqori ta'sirchanligi bilan televideniya qudratli ommaviy axborot vosita ekanligini isbotladi. Aynan texnik va texnologik imkoniyatlar televideniye omma ongiga kuchli ta'sir qiluvchi, uni muayyan g'oyalarga safarbar etuvchi kuchga aylantirdi. Biroq, televideniye bugungi rivojlanish tamoyillari bilan jamiyatning haqqoniy obyektiv va batafsil axborotga bo'lgan ehtiyoji o'rtasida tafovutlar yuzaga kelganligini ta'kidlash joiz. Buning asosiy sabablari xorijiy teleko'rsatuvlarning mamlakatimiz bo'ylab jilovlab bo'lmas darajada tarqalishi, uni kuchli mafkuraviy qurolga aylanishi, axborotni tovarga aylanishi tufayli xorijiy telekanallar moddiy boylik ortirish maqsadida ma'naviy jihatdan sayoz ko'rsatuvlarni efirga uzatishlari: vaqt "qadri" ga yetish maqsadida hozirgi zamonamiz televideniye'dagi tok-shouni ko'rsatib yoki radiodagi musiqiy dasturni tinglab ularga biror ma'no yo'qligini anglab turadi, bekorchilikdan qochish uchun e'tiborni uzmasligi: vizual axborot vositalari mohiyatidan ko'ngil yozish hislarini qo'zg'atishga xizmat qilish tufayli ularni axborot mazmuniga salbiy ta'sir ko'rsatishni ta'kidlaydi.

AQShdagi Karnegi jamg'armasi televideniye bo'yicha 1986 yildan boshlab o'n yil mobaynida 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga asoslanib, "televideniye o'z imkoniyatlarini tarbiya uchun safarbar etgani yo'q, aksincha, u ijtimoiy fe'l atvorni eng salbiy andozalarini targ'ib etayotir... Reklamaga mahliyo bo'lib o'tirish o'smirlarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini cheklaydi va tajovuzkor fe'l atvorini rag'batlantiradi" degan xulosaga keldi.

Telekanallardagi zo'ravonlik sahifalarida zo'ravon hatti-harakatlar bir tomondan insonda ularga tahlid qilishga undasa, ikkinchi tomondan ularning inson mayillarini qo'zg'alishiga turtki beruvchi omil sifatida agresiv tasavvur va g'oyalarning vujudga keltiradi, bu o'z navbatida tajavuzkor fe'l atvoriga doyalik qiladi.

Buning isboti sifatida AQSh Solig'liqni saqlash vazirligining televideniye va ijtimoiy fe'l atvorni o'rganish qo'mitasi (1972y), Ruhiy salomatlik milliy instituti (1982y), AQSh Psixologiya assosiasiyasining (1993y) xulosalarida ekranlardagi

zo'ravonlik hayotda ham shunday hatti-harakatlarga sabab bo'lishi e'tirof etilganini ko'rsatish mumkin. Mazkur masalaning yana bir jihati G'arb mamlakatlarida ma'lum kuchlar manfaatiga xizmat qiladigan muayan g'oyalarni omma ongiga aniq maqsadga yo'g'irilgan axborot vositalari orqali singdirish maqsadida puxta o'ylangan siyosat yuritilayotganligidadir.

Bu esa boshqa millat va xalqlar ongi-shuuriga, axloqiy qadriyatlarini va dunyoqarashiga ma'naviy tahdidni vujudga keltiradi. Katta moliyaviy imkoniyatlarga bo'lgan ayrim kuchlar yot turmush tarzi, tafakkur va ma'naviyati, dunyoqarashi, qadriyatlarini, ma'naviyati o'ziga xos bo'lgan xalqlarga tiqishtirib ular tafakkurini "standart" holga keltirish oqibatida esa muayyan g'oyaviy rejani amalga oshirishga urinmoqda.

Prezident I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida ushbu masalaga to'xtalib shunday yozadi "Insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajavuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib bo'ysindirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirish, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlarini, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi. Buni tasdig'ini uzoq va yaqin tarixdagi ko'p misollarda yaqqol ko'rish mumkin. Chunki, har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [3,11-12]. Binobarin kelajagimiz ajdodlardan qolgan meros boy ma'naviyatimizni, xalqimizning bunyodkor azmi shijoati, jamiyatimizdagi ahil-inoqlik va hamjihatlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash kabi hayotiy muhim masalalar bilan chambarchas bog'liq.

Milliy ma'naviyatimizga zid bo'gan teleko'rsatuv va reklamalarga murossasiz bo'lish burchimizdir. Ayniqsa, ayrim kabelli televideniyealar manfaat ortidan quvib namoyish etayotgan film va reklamalarda millat ma'naviyatini yemiruvchi "Media verus" yotibdi. Bunday sharoitda ma'naviy tarbiyadan iborat "emlash" ishlarini olib borish "Virus o'chog'ini lokalizatsiya qilish ishlarini olib borish, kerak. Ekranida zo'r berib targ'ib va tashviq etilayotgan yangi yengil yelpi turmush tarzi

ko'pchilikni maqsad mudoosiga aylanishi hech gap emas. Huzur halovatga moyil odam esa qiyinchiliklarga bardoshsiz bo'ladi. Siseron (Mark Tulet) ta'kidlashicha, "huzur va lazzatni oliy saodat deb biluvchi kishi sira ham nafsni tiyib, sabr-bardoshli bo'la olmaydi" [28,99].

Tadqiqotchilarning xulosalariga ko'ra, televideniye ko'rsatuvlarini uzoq vaqt kurish huzur-halovatga moyillikni kuchaytiradi, ijod qilish, yaratish hissini susaytiradi.

Televideniye omma o'rtasida radio va boshqa nashrlarga nisbatan ko'proq ishonch to'g'irishini sababi shundaki, u yolg'onni haqiqatga aylantirish bobida boshqa axborot vositalarida bo'lmagan alohida "salohiyat"ga ega. Ekran orqali havola etilayotgan yolg'on yoshiqni ham tomoshabin aynan haqqoniyat deb qabul qiladi.

Axborot kommunikasion texnologiyalari keng rivojlangan hozirgi davrda xorijiy televideniye ko'rsatuvlari siyosiy, ma'naviy, axloqiy va ruhiy xafsizlikka xatar soluvchi manba to'lib qolmoqda, televideniye esa obyektiv va subyektiv omillarga ko'ra, tahdid jihatdan boshqa ommaviy axborot vositalari-matbuot, radio va hatto internetga nisbatan birinchilikni qo'ldan bermay kelayotir.

Xorijiy telekanallar ko'rsatuvlarining salbiy ta'siri oqibatida aholi, ayniqsa yoshlar ma'naviyatida ba'zi muammolar yuzaga kelayotganligi sir emas. Xususan, fitishizim – lash-lushparastlik va "moda" zeb bo'lmag'ur atolar ortidan quvish urf-odatga aylanib borayotir.

Ma'lumki, ota-ona farzandiga qalb qo'rini bag'ishlaydi, uning kamoli yo'lida bor-yo'g'ini ayamay sarflaydi, bu o'zbek xalqiga xos azaliy an'ana. Biroq, televideniye jodusiga asir bo'lganidan farzand istiqbolini esdan chiqarib qo'yayotgan "teletomoshabin" ota-onalar ham borligi tashvishlantiradi.

Xorijiy teleko'rsatuvlarning milliy ma'naviyatimizga, ayniqsa yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta'sirini har tomonlama tadqid etish, axborot mexanimizga suqilib kirib, ommani ongini chalg'itishga, buzg'unchi g'oyalarni targ'ib qilishga intilayotgan ko'rsatuvlarga qarshi qat'iy choralar ko'rish bo'yicha aniq dastur ishlab chiqilishi joiz.

Muallif yosh avlodni salbiy axborot vositalaridan muhofaza etishda matbuot, mahalla va oila hamkorligi muhim o'rin tutishini ta'kidlash barobarida ota-ona uyda ibrat bo'lib buzg'unchi xorijiy ko'rsatuvlarni ko'rib o'tirsa, farzandida ham bunga rag'bat uyg'onishini takidlaydi.

Mahalla bolani yomon yo'ldan qaytarmasa, unda o'zidan-o'zi tafakkuri yuksalib qolmaydi-ku? Bunda kattalarning yoshlarga nisbatan jonkuyarligi, talabchanligi suv va havodek zarurligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, markaziy gazeta va jurnallar hamda maxalliy matbuotda bosilgan islom dinining ma'rifiy mohiyatini, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy merosni, mustakillik yillarida keng quloch yoygan tadbirkorlik harakatini, mamlakatimizni jahon hamjamiyatida tobora mustahkam o'rin egallab borayotganligini targ'ibot-tashviqot qilishning birgina o'zi talabalarda mamlakatimiz kelajagi buyuk ekanligiga yetarli darajada iymon keltira olmaydi, desak xato bo'lmaydi.

Har qanday g'olib mafkuralar sahnaga chiqqanida o'zining goyaviy ta'sirini mustahkamlash va o'z mavqieni mustahkam tutib turish uchun emosional - axborotli vosita (bayram, dabdabali marosim va h-k.)lardan foydalanganliklari bizga uzok utmishdan ma'lum. Jumladan, bundan uch ming yil avval yaratilgan «Avesto» muqaddas kitobining guvohlik berishicha, ajdodlarimiz badiiy bezatilgan ommaviy mafkuraviy tadbirlarni, fuqorolik bag'ishlovlarning keng targ'ib qilishib, mafkuraviy tarbiyaviy tajribalarini keyingi avlodlarga meros qilib qoldirganlar. Prof. T.Maxmudov «Avesto» nomli kitobida «inson ruhini, dilini, tasavvurini ulug'lash va ko'tarish, insonning ma'naviy tomonga parvoz etishida madadkor bo'lish «Avesto» qo'shiqlarining romantik tantanavorligida o'z ifodasini topgan», deb yozadi [10,42].

Badiiy bezatilgan emosional obrazli ommaviy bayramlar namunasini mustaqillik yillarida qayta tiklangan va vujudga kelgan «Navruz» va «1-sentyabr — Mustakillik kuni» bayramlari tantanalarida ko'rishimiz mumkin.

OTM o'quv-tarbiya jarayonida talabalarni OAVlari yordamida ma'naviy shakllantirish masalasi qaralganda OO'Yu matbuotining bu sohadagi

imkoniyatlarini ham o'rganish maqsadga muvofiq. Chunki, bugungi kunda OO'Yu matbuoti nafaqat akademik guruhlar devoriy gazetalari, ko'p tirajli gazetalari, radio-televideniye tarmoqlarini, balki tobora kengayib borayotgan kompyuter, internetni ham o'z ichiga oladi.

Yuqorida kursatilgan imkoniyatlarning barchasini hisobga olgan taqdirdagina ma'naviyat bilan bogliq, ishlarimiz mazmuniga o'zimiz yashab turgan vaqt (davr)ning ruhi, nafasini muntazam ravishda singdirib borish mumkin.

Bu yerda bajargan tahlillarimiz OAVlaridan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bo'yicha bajarilgan tadqiqotlar magistrlik dissertasiyamiz mavzusi doirasini qamrab olmaganligidan dalolat beradi.

Shu munosabat bilan tadqiqotimizning ikkinchi bobida talabalarning ma'naviy shakllantirish bo'yicha ijtimoiy institutlarning hamkorligini qarashga o'tamiz.

II BOB. Talabalarni ma'naviy shakllantirishda ijtimoiy institutlar faoliyatining mazmuni, shakl va metodlari

2.1. Talabalarni ma'naviy shakllantirishda ommaviy axborot vositalarning imkoniyatlari

“Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasida milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz qalbi va ongiga singdirishni “Ta'lim va tarbiya”, “Fan va ilmiy muassasalar”, “Madaniyat va ma'naviyat muassasalari”, “Adabiyot va san'at”, “Din”, “Jismoniy tarbiya va sport”, “Urf-odat, marosim va bayramlar”, “Oila, mahalla va mehnat jamoalari”, “Ommaviy axborot vositalari” kabi 13 vositasi ko'rsatilgan.

Quyida ularning ayrimlariga qisqacha xarakteristika beramiz:

Televideniye - ommaviy axborot vositasi. Jamoatchilik fikrini shakllantirishda, yoshlarni tarbiyalashda, alohida o'rin tutadi. U ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jarayonini, muammolarni, jamiyat hayotining turli qirralarini tezkorlik bilan aks ettiradigan eng samarali vositadir.

Radio – ommaviy axborot vositasi bo'lib, turli xil fikrlar, rang-barang qarash va yondashuvlarga keng yo'l ochib beradigan, hayotimizda ro'y berayotgan yangilanish va o'zgarishlarga odamlarni ongli munosabatini uyg'otadi, afsuski shaharda qishloqlarga nisbatan radio kam eshitiladi.

Gazeta va jurnallar - o'qituvchi bolalarning madaniy ong-bilim darajasini kengaytirish, ularga fan va texnika yutuqlari to'g'risida axborot berish, axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun matbuotdan keng foydalanishi mumkin. Gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, mehribonlik, halollik, samimiylik, dilkashlik, vatanga muhabbat va boshqa shu kabi masalalarni muhokama qilish uchun qimmatli material beradi. Talabalarning matbuot bilan bog'liq ishlarini shunday yo'lga qo'yish kerakki, buning najjasida, ular o'rta qo'yilgan masalalarni muhokama qilishga qiziqish uyg'otsin, muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o'z fikrini aytish istagi paydo o'lsin. Bu narsa juda muhim.

Axborot resurs markazlari - bosma va ayrim qo'lyozma asarlardan barchaning barovar foydalanishini ta'minlaydi. Kutubxonalar bosma asarlarni yig'ish, saqlash, targ'ibot qilish bilan shug'illanadi. Kutubxonalarning maqsadi ommaning turli qatlamlarini har tomonlama tarbiyalash, ularni g'oyaviy, siyosiy madaniy, iqtisodiy, estetik, diniy saviyalarini oshirish hamda mustaqil o'qishga yordam berishdan iborat.

Reklama – qisqa, tez-tez ma'lum vaqtda eslatib turiladigan axborot, turli axborot tarqatish vositalari orqali (gazeta, jurnal, televideniye, radio eshittirishlar) ko'rgazmali, tasviriy vositalar (taxta, lavha, afisha, plakatlar), audio-video yozuvlarni namoyish qilish.

Plakatlar – targ'ibot, tashviqot, axborot olish yoki reklama maqsadida ko'chalarga, jamoat joylariga, ta'lim muassasalaridagi o'quv xonalari (kabinet, auditoriya)ga osib qo'yiladigan plakatlar va har bir mavzuni o'tishda alohida plakatdan foydalaniladi.

Videokliplar – o'quv tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan videodastur, teledastur, film shaklidagi o'quv-tarbiyaviy kliplar talabalar diqqatini o'ziga jalb qiladi.

Varaqalar - siyosiy tashviqot vositalaridan biri bo'lib, talabalarni varaqalarning davlat siyosatiga qarshi yozilishidan ogohlantirish, bunday varaqalarga qarshi tarbiyalash, yot bo'zg'unchi g'oyalarga qarshi immunitet hosil qilishdir.

Mahalliy radiouzellar - orqali mahallaning o'z odamlari eshittirish olib boradilar. Masalan yosh avlodni tarbiyaga chaqirish, vaxobiylik, terrorizim va boshqa jihatlarga qarshi kurashish bilan bog'liq eshittirishlarni ko'rsatish mumkin. Ulardan “Eng yaxshi oila”, “Eng yaxshi kelinchak” va boshqa ko'rik tanlovlarni o'tkazishda foydalanish mumkin. Ularning maqsadi: hayotiy misollar yordamida yoshlarda ma'naviy axloqqiy sifatlarni tarbiyalashdan iborat.

Badiiy film - kino san'ati asari bo'lib, g'oyaviy estetik tarbiya vositalaridan biri hisoblanadi. Mamdakatimizda ommani tarbiyalashga qaratilgan

g'oyaviy-badiiy yetuk filmlarni ko'proq ishlab chiqarishga alohida e'tibor berilmoqda.

Teatr – san'ati voqeylikni badiiy obrazlar tizimi vositasida ko'rsatadi. Teatrda aktyor tomoshobin ko'zi oldida hayotni so'z va dramatik harakat orqali aks ettiradi, tomoshabinni asar qahramonlari bilan yuzma-yuz turib, bevosita munosabatda bo'ladilar.

Teatrning asosiy to'g'ri tomoshabinni g'oyaviy-axloqiy, estetik jihatdan to'g'ri tarbiyalashdir. Uning vazifasi axloqiy estetik sharoitni yaxshilashga xizmat qilishdir. Teatr yoshlarni Vatanparvarlik, baynalmilatlik, axloqiy go'zallik ruhida tarbiyalaydi.

Teatr – kishilar dunyoqarashini yuksaltiradigan, odamlarga ma'naviy-ruhiy ozuqa beradigan ma'naviyat uchog'i hisoblanadi. Bu dargohda g'oyaviy-badiiy jihatdan yetuk milliy qadriyatlar, an'ana, urf-odatlar aks etgan asarlar qo'yilishi juda muhim.

XXI asr axborot kommunikasiyalari yuqori darajada taraqqiy etish tufayli uni endi hech qanday yo'l bilan to'xtatib bo'lmasligini hisobga olsak, uning ijobiy tomonlaridan yuqori darajada samarali foydalanish va salbiy jihatlaridan xuddi shu darajada himoyalanganmog'imiz zarur.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalari rivojlangan hozirgi davrda uning salbiy jihatlaridan saqlanish uchun milliy qonunchiligimizni takomillashtirish, talaba-yoshlarda axborot (televideniye, radio, gazeta, jurnal, internet)lardan to'g'ri foydalanish metodikasini shakllantirish, informasion xurujlarga qarshi (masalan mafkuraviy buzg'unchilik, zo'ravonlik, shafqatsizlik, yot g'oya va mafkuralar ta'siriga tushib qolish va h.k) ma'naviy imunitetni shakllantirish va ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarni ta'sirchanligini oshirish lozimligini bugungi davr taqozo etmoqda.

Bu sohada xalqaro miqyosda olib qaraydigan bo'lsak nosog'lom axborot oqimlaridan yoshlarni himoya qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilgan. Jumladan, "Keber jinoyatlar to'g'risida"gi Konvensiya, "Voyaga yetmaganlar uchun xavfsiz internet va on-layn web saytlar resurslarini joriy qilish

to'g'risida"gi Yevropa Ittifoqi parlamenti assambleyasining tavsiyalari, "Bola huquqlari to'g'risida"gi BMT Konvensiyasi. "Yoshlarni ximoyalash to'g'risida"gi Germaniya, "Voyaga yetmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta'siridan himoyalash to'g'risida"gi Litva va "Bolalar sog'ligi va rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi axborotlardan himoyalash to'g'risida"gi Rossiya qonunlari va boshqa huquqiy hujjatlarni misol tariqasida ko'rsatish mumkin.

Milliy qonunchiligimizda ham yoshlarni nosog'lom axborotlardan himoyalashning mexanizmlari mavjud. Xususan, "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonunda yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo'ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday hatti-harakatlar man etilishi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda esa pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish ta'qiqlashini belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda axborot va so'z erkinligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar yosh avlodni kengroq axborot olish huquqlarini ro'yobga chiqarish, ularni ma'naviy tahdidlardan himoyalash, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etayotgani sir emas. Bunday faoliyat samaradorligini oshirishda esa ommaviy axborot vositalarining mas'uliyatini kuchaytirish nihoyatda muhimdir.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari inson tafakurini yangi g'oya, fikr bilan boyituvchi, ularni so'nggi ilm-fan yutuqlaridan, ilg'or tajribalardan boxabar qiluvchi katta kuch sifatida mafkura maydonida hukmronlik qilmoqda. Axborot olamida internet-televideniyeining, internet-radio, onlayn, web saytlar va boshqa ko'plab axborot tarqatish texnologiyalari jadal suratlar bilan rivojlanib, ularning doirasi tobora kengayib bermoqda. Bu kabi axborot vositalari yoshlarda juda katta qiziqish uyg'otishi va ulardan keng foydalanishini hisobga olsak,

masalaning naqadar muhimligini, axborotlar globallashtirish jarayonida turli xil ko'rinishdagi axborot xurujlari va g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilish kerakligi oydinlashadi.

Bu boradagi ishlarni samaradorligini oshirishda ommaviy axborot vositalarining ma'suliyatini kuchaytirish lozim. Ommaviy axborot vositalarida mustaqilligimiz davrida erishilgan yutuqlar, xalqimiz hayotida sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar, urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimizga bag'ishlangan ko'rsatuvlar va tahliliy materiallarni kengroq yoritib berish zarur.

Hozirgi vaqtda televideniye ko'rsatuvlari o'zining jozibadorligi, rang-barangligi va ko'lamdorligi bilan ko'rsatuvlar hajmi kengayib bormoqda. Tayyorlanayotgan ko'rsatuvlar mazmun va mohiyati jihatidan yoshlarimizni ma'naviy rivojiga, estetik dunyoqarashining shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatmoqda.

Prezidentimiz I.Karimov yosh avlodda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish uchun ular orasida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot-tashviqotning samaradorligini oshirish zarurligini ta'kidlab "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" nomli asarida shunday yozadi: "Ma'naviyat haqida har qancha da'vatlar, muhim nazariy choralar bildirmasin, agar ularni jamiyat ongiga sindirish uchun doimiy ish olib bormasak, bu boradagi faoliyatlarimizni har tomonlam puxta o'ylangan, tizimli ravishda tashkil etmasak, tabiiyki, biz ko'zlangan maqsadga erisha olmaymiz, ya'ni inson qalbiga yo'l topa olmaymiz.

Shuning uchun ham biz bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasidan boshlab matbuot, televideniye, Internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomchilik va haykaltaroshlik san'atiga bir o'z bilan aytganda insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan barcha sohalardan faolligimizni xalqning ma'naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur" [3,129].

Yuqorida ta'kidlanganidek, talaba yoshlarni ma'naviy shakllantirishdagi eng qudratli va ta'sirchan vosita asosida ommaviy axborot vositalari hisoblanadi.

Ayni paytda mamlakatimizda 870 dan ziyod gazeta va jurnallar, 100ga yaqin davlat va nodavlat radio, telestudiyalar, 4ta axborot agentligi va kabel telestudiyalari mavjud bo'lib, ular erkin faoliyat ko'rsatmoqda.

Dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarda ommaviy-axborot vositalari jamiyat ijtimoiy siyosiy hayotida yetakchi o'rin tutadi. Gazeta va jurnallar, radio va televideniye har bir davlatda omma bilan hokimiyat o'rtasida o'ziga xos aloqa vositasi, oshkoralik ko'zgusi, haqiqat jarchisi bo'lib xizmat qiladi. Yurtboshimiz jamiyatimizning bugungi hayoti, uning barcha quvonchli, shu bilan birga mashaqqatli og'ir tomonlari matbuot va ommaviy axborot vositalarida o'zining qanchalik xolisona aksini topsa, jamiyatimizda shunchalik adolat va to'g'ri so'zlik muhiti hukmron bo'ladi, deb juda oqilona ta'kidlanganlar. Shunday yuksak mavqeyini hisobga olgan holda ommaviy axborot vositalarini ramziy ravishda to'rtinchi hokimiyat deb yuritiladi. Xalq fikrini ochiq-oydin ifodalovchi, demokratiyaning muhim tayanchi bo'lganligi uchun davlat boshqaruv organlari ommaviy axborot vositalari bilan maslahatlashishga, ularni fikrlarini e'tiborga olishga majburdir. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgarlar – senzura yo'l qo'yilmaydi" deyiladi [1,13].

Binobarin, davlatimizning Asosiy Qonunida bu modda bejiz qayd etilmagan. Ushbu qisqa jummalarda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish, erkinligini ko'rsatish, ularni xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishga erishish zaruriyati haqida o'qtirilgan.

Ommaviy-axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish, milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz, avvalo, yosh avlod ongiga singdirishdagi ahamiyati beqiyosdir. Ular ma'naviy-ma'rifiy islohotlar tartibi, bu boradagi muammolarni, jamiyat hayotining turli qirralarini tezkorlik bilan aks ettiradigan eng samarali vositadir. To'rtinchi hokimiyat hisoblangan ommaviy axborot vositalari turli xil fikrlar, rang-barang qarash va yondashuvlarga keng yo'l ochib berish, hayotimizda

yuz berayotgan yangilanish va o'zgarishlarga odamlarni ongli munosabatini uyg'otishi, xolislik va haqqoniyat tamoyillariga tayanib faoliyat yuritishi lozim.

Xalqimiz hayotiga keng kirib kelgan, insonlarni ma'naviy shakllantirishda ommaviy axborot vosita (gazeta, jurnal, televideniye, kino va b.q) lari alohida o'ringa ega. Ular tomoshobin, tinglovchi, talabalar emosional his-tuyg'ulariga bevosita boy maftunkor ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ommaviy axborot vositalari ma'naviy tarbiya sohasidagi siyosatni aniq belgilab olishi, ma'naviyatning maqsad va tamoyillarini yoshlarda yuksak ma'naviyatni shakllantirish bo'yicha targ'ibotchi murabbiy, talabalar diqqatini maqsadli yo'naltirish metodikasini egallab olishi va ommaviy axborot vositalarini barcha ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishi zarur.

Ommaviy axborot vositalari orqali talabalarni ma'naviy, mafkuraviy tarbiyalash bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar odatda gazeta va jurnallarning bu sohadagi imkoniyatlarini namoyon qilishdan boshlanadi. Shu nuqtai nazardan ushbu maqsad uchun "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Ma'rifat", "Kamalak", "Kamolot" gazetalari imkoniyatlarini yuqoriligini ta'kidlash zarur. Mazkur gazetalarda bosilgan islom dinining ma'rifiy mohiyatini, buyuk ajdodlar qoldirgan boy merosni, mustaqillik yillarida keng quloch yoygan tadbirkorlik harakatini va hokazolarni yoritishga bag'ishlangan materiallarni muhokama qilish, ularda ma'naviyat va ma'rifatga bag'ishlangan materiallarni to'plash, tizimlashtirish, O'zbekistonning mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarini o'rganish orqali talabalarda mamlakatimiz kelajagi buyuk ekanligiga iymon keltirishda juda asqotadi.

Talabalarda gazeta va jurnallarga qiziqish uyg'otish va ulardan kerakli materiallarni izlab topilish axborotni qayta ishlash ko'nikmasini shakllantirish maqsadida turli shakl va metodlardan foydalanishini yo'lga qo'yishi zarur. Jumladan, akademik guruh rahbarlari tomonidan ishlab chiqilgan talabalar mustaqil ishlari tizimida markaziy gazetalar ("Xalq so'zi", "Narodnoye slova", "O'zbekiston ovozi", "Pravda Vostoka", "Turkiston", "Mohiyat", "Qadriyat", "Ma'rifat", "Adolat" va boshqalar), mahalliy gazetalar ("Zarafshon", "Samarqand

ovozi”, “Samarkandskiy vestnik”, “Ovozi Samarqand” va b.q) hamda ilmiy-ommabop, ilmiy-metodik, bolalar, talabalar jurnallarida mustaqillik yillarida Samarqand viloyati, O’zbekiston Respublikasi xalq xo’jaligining turli sohalari (mashinasozlik, energetika, geologiya, transport, qishloq xo’jaligi va h.k) da ilmiy-texnika taraqqiyoti odimlari, mamlakatimizning jahon hamjamiyatida munosib o’rin egallab borayotganligini aks ettirgan materiallarni izlab topish, tizimlashtirish va umumlashtirishga bo’ljak o’qituvchilarni jalb qilish ularning ma’naviy dunyosini kengaytirishda asqotadi.

Talabalarga beriladigan topshiriqlar doirasi xalqimizning ma’naviy yuksalib borayotganligini ko’rsatuvchi axborotlarni yetkazish bilan cheklanmaydi, ya’ni ular ushbu axborotlarni ularning mazmuniga mos ravishda qayta ishlaydilar. Masalan, har kuni foydalanish uchun qulay bo’lgan slaydlar, kartochkalar, ko’rgazmali vosita, diagramma, jadvallar tayyorlaydilar. Jumladan, “Boshlang’ich ta’lim va bolalar sporti” ta’limi yo’nalishi talabalari “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fani bo’yicha “Oila Vatan ichra Vatandir”, “Mustahkam oila sog’lom jamiyat demakdir”, “Matematika”. “Matematikani o’qitish metodikasi” fanlari bo’yicha “Matematika va hayot”, “Ona tili”, “Ona tili o’qitish metodikasi” fanlari bo’yicha “Alisher Navoiy millat quyoshi ma’naviy pirimiz”, “Kompyuterlar sanoat, qishloq xo’jaligi, iqtisodiyot, maorif, fan taraqqiyotida” mavzularida: “Mehnat ta’limi va uni o’qitish metodikasi” fanlari mashg’ulotlari uchun esa “Tadbirkorlik harakati”, “Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ishga tushgan eng yirik sanoat markazlari”, “Xalq farovonligini oshirishda texnika va texnologiyalarning yutuqlari”, “Xalq hunarmandchiligi”, “Shahar va viloyatimizning yetakchi korxonalari va aniq kasblar bo’yicha ularning kadrlarga bo’lgan ehtiyoji” kabi mavzularda qiziqarli materiallar izlab topdilar.

“Kasbiy ta’lim”, “Muxandislik grafikasi”, “Amaliy san’at” ta’limi yo’nalishlari talabalari esa, o’zlari mafkuraviy rasm chizadilar va ma’ro’zalardan foydalanadilar.

Ular tayyorlagan ko’rgazmali vositalar yot mafkuralarning zo’ravonlik, bo’zg’unchilik, mohiyatini fosh qilishda katta mafkuraviy ahamiyatga ega, bunda

yetakchi rassomlarning ijodi ham alohida ma'ro'zaning mavzusi bo'lishi mumkin. Unda ularning asarlariga xos bo'lgan voqyealar va hodisalar to'g'risida so'zlab beriladi.

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda ommaviy axborot vositalari orqali talabalarni ma'naviy shakllantirish bo'yicha guruh rahbarlariga quyidagilarni hisobga olish o'qtiladi va tavsiyalar beriladi:

- milliy ma'naviyatimizga doir ommaviy matbuotda berilgan materiallarni yig'ish, albom tayyorlash, ularni maktab, lisey va kasb-hunar ta'limi jarayonida o'rganiladigan predmetlar o'quv material mazmuniga singdirish yo'l-yo'riqlari haqida talabalarga tavsiyalar berish:

- aniq mavzular bo'yicha ma'naviy soat hamda ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlar soatlarini o'tishni rejalashtirib, mustaqil O'zbekistonning istiqloq yillarida iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarida erishgan yutuq (ko'rsatgich)larini matbuot materiallari asosida o'rganib, diagramma, jadval va tasviriy ma'lumotlar tayyorlash:

- ma'naviy soat mavzusi bilan bog'liq masalalar (masalan, "Mehr va muruvvat yili"ga bag'ishlangan "Muruvvat boricha bermoqdir", Futuvvat boricha qilmoqdir..." (Alisher Navoiy) ruboyisi ostida chiqqan maqolalar bo'yicha bahs-munozaralar tashkil qilish:

- matbuotda yoritilayotgan materiallarni o'qish sharhlash va muhokama qilishda O'zbekiston va jahon xaritalaridan foydalanish barobarida ona Vatanimizning O'rta Osiyoda muhim geopolitik mavqeyini, uning yer osti va yer usti boyliklari beqiyosligini, bu hududda yashagan millatimiz boshqa xalqlar va mamlakatlardan ancha avval ma'orif, fan, madaniyatni yuksak cho'qillarga ko'targan (uyg'onish davrini boshlab bergan)ligini muntazam ravishda ko'rsatib borish zarurligiga talabalarning e'tiborini qaratish.

Talabalarni ma'naviy shakllantirishda ommaviy matbuot vositalari materiallaridan foydalanishning tematik kundalik shakli ham katta samara beradi. Jumladan, "Terrorizm insoniyat dushmani", "Diniy ekstremizm, giyohvandlik, ichkilibozlik va foxishabozlik", "Andijon voqyealari", "Istiqloq odimlari",

“Ma’naviyatimiz darg’alari” kabi bo’limlarga aylanishida matbuot bilan ishlash aksariyat talabalarning kasbiy-pedagogik vazifasiga aylantirilganligida talabalarda ma’naviy ehtiyojni shakllantirishda, dunyoqarashni kengaytirishda, ma’naviy shakllanishning hayot bilan aloqasini kuchaytirishda namoyon bo’ladi.

Xalqaro keskinlik, terrorizm, qo’poruvchilik harakatlari avj olishiga qaramasdan mustaqil respublikamizning jahon hamjamiyatiga ildam qadamlar bilan qo’shib borayotganligi, dunyo xalqlari bilan teng munosabatlar o’rnatayotganligi, fan-texnika, madaniyat sohasida erishilayotgan muvaffaqiyatlarimiz to’garak ishida alohida-alohida ma’ro’za mavzular sifatida tanlab olinishi va muhokama qilinishi mumkin.

Inson ruhiyatiga ta’sir etish va uning ma’naviyatini shakllantirishda radio orqali ilohiy qudratga ega bo’lgan so’z bilan uzatiladigan axborotning roli benihoyat kattadir.

Radio orqali eshittiriladigan “Subhidam salomi”, “Tabassum”, “Musiqali daqiqalar”, hamda “Oqshom to’lqinlarida”, eshittirishlari kishilar qalbida ma’naviy jo’shqinlik uyg’otadi.

“Tabassumda” beg’araz kulgu orqali kishilar xarakteridagi ayrim xislatlar tilga olinib, ularni ijobiy va salbiy jihatlari anglatiladi. Aniq misollarda yoritish, talabalarga shunday tahlil qilish uchun topshiriqlar berish (eshittirishni magnit lentasiga yozib olingandan keyin) “Oqshom to’lqinlari”da eshittirishlari esa har qanday ma’naviy yetuklikka ega bo’lgan kishini befarq qoldirmaydi, ashula va musiqa orqali ma’naviy ozuqqa oladi.

Turli pand-nasihat tarzidagi rivoyat va maqollar orqali esa talabalarda qadriyatlarimizni boyitishga bo’lgan harakat, intilishni hosil qiladi.

Yosh avlodni ma’naviy boy bo’lishida “Oqshom ertaklari”, “Alanga”, “Kamalak”, “Yangi avlod” singari eshittirishlar ham muhim sanaladi. Bunday dasturlar bolalar va o’smirlarni yaxshilikka, iymon e’tiqodli bo’lishga, ota-onasi va birodarlariga muhabbatli bo’lishga undaydi.

Ko’rgazmali o’quv axboroti yordamida talabalar o’zlashtirish darajasining yuqori bo’lishi, hozirgi zamon fiziologiya fanining yutuqlariga ko’ra, o’rganish

jarayoniga miyani tavsiriy o'ng yarim shari boy imkoniyatlarini qo'shilishi bilan izohlanmoqda. Chunki, o'quv materialini mazmunini o'zida zich joylashtirib ravshan ko'rsatuvchi suratlar ularda tizimli bilimlarni shakllanishiga yordam beradi hamda mazkur suratlar o'quv materialini bo'lajak o'qituvchilar tomonidan qabul qilinishi va eslatishi samarasini oshiradi.

Shu boisdan ham akademik guruh rahbarlari oliy o'quv yurtining ma'naviyat kunlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishning rejasida talabalarning kinoteatrlarda badiiy filmlarni, "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlari va xonalarida teleko'rsatuvlar, videolavhalar, kliplarni tomosha qilib, muhokama qilishlarni kuzda tutishi kerak.

Hozirgi vaqtda ko'rish mexanizmining o'quv materialini o'tkazish qobiliyati eshitish mexanizimiga nisbatan ancha yuqori ekinligi isbotlangan. Bu esa, o'z navbatida ko'rish tizimiga inson qabul qiladigan o'quv materiallarini qariyb 90 foizini yetkazish imkoniyatini beradi. Undan tashqari ko'rgazmali o'quv materialini bir vaqtning o'zida beriladi.

Shu bois o'quv axborotini qabul qilish va eslashga og'zaki bayon qilingan o'quv axborotiga qaraganda kam vaqt talab etiladi. Ta'lim jarayonida ko'rgazmali o'quv materialini ishlatilganda tassurot hosil bo'lishi uni og'zaki bayon qilganga qaraganda o'rtacha 5-6 marta tezroq kechadi. Talabalarning ko'rgazmali o'quv materiallaridan ta'sirchanligini, uni og'zaki bayon qilganga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Masalan, "Otalar so'zi aqlning ko'zi", "Turmush chorrahalari" mavzularida efirga o'zatiladigan teleko'rsatuvlarda o'g'il-qizlari bo'la turib "Qariyalar uyiga" tushib qolgan ota-onalarning bolalarini qachon keladi deb kutushlari tasviri tushirilgan video lentalar hych bir talabani befarq qoldirmaydi. Ayni paytda ko'rgazmali o'quv materialini talabalarga takror-takror namoyish qilish oson va aniqroqdir. Shu bilan birga insonning ko'rgazmali axborotga ishonchi og'zakiga nisbatan yuqoridir.

Ko'rgazmali o'quv vositasi sifatida kinofilm talabalar hissiyotiga ijobiy va salbiy obrazlar orqali ta'sir etadi. U ma'naviy hayotni badiiy obrazlar vositasida talabalar ongiga har tomonlama aks ettirishga imkon beradi. Masalan, ona

Vatanimiz tabiiy boyliklari, bepoyon kengliklari, turli tuman manzaralarni suratga tushurgan filmlar talaba yoshlarda faxrlanish tuyg'usini uyg'otadi, ularni ozod va obod jamiyat bunyod etishga da'vat etadi.

Mustaqil Vatanimiz fuqarolarining ma'naviy go'zalligini, yuksak axloqiy vazifalari va mehnat faoliyatlari tasvirlangan kinofilmlarni talabalarga namoyish qilish orqali oddiy paxtakor, quruvchi, g'allakor, fermer, tijoratchi erishayotgan misli ko'rilmagan yutuqlar bilan tanishadilar, mehnatga ijodiy munosabatda bo'lish namunalarini idrok etish orqali xuddi shunday mehnatsevarlik fazilatlarini bolalarga hikoya qilib berish bilan tushuntirishi qiyin.

Kinofilmlarning chinamikligi esa talabalar diqqatini ekrandagi ezgulikka yo'g'rilgan hayotiy voqyealarga jalb etib, ularni tuyg'usiga kuchli ta'sir qiladi va ularni mazmunini ongli o'zlashtirib olishlariga yordam beradi. Masalan, istiqlol yillarida Respublikamiz shahar va qishloqlarida amalga oshirilgan ma'naviy, iqtisodiy va siyosiy islohotlar tufayli xalqimiz ma'naviy hayotida sodir bo'lgan tub o'zgarishlarni ma'naviy, madaniy, iqtisodiy hayotda xalq farovonligini oshishi, xalqimizning boy o'tmishi, mustaqilligimizning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan yuksaltirish bo'yicha fidokorona mehnati tasvirlangan kadrlarning xilmaxilligi va dinamikligi talabalar diqqatini ekrandagi voqyealarga jalb etib, ularni tuyg'usiga kuchli ta'sir o'tkazadi va talabalarning o'rganilayotgan materialni ongli o'zlashtirishga yordam beradi. O'qitishning samaradorligini oshirish, o'quv materialini esda saqlashni osonlashtirish, talabalarning qiziqishlarini oshirish kinofilmlarda fan va madaniyatni rivojlantirish uchun kurashgan buyuk mutafakkirlar, millatimiz iftixori al-Xorazimiy, Beruniy, ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Bobur, Alisher Navoiy va boshqalar islom dinining insonparvarlik, birodarlik, bag'rikenglik kabi g'oyalari targ'ibotchilari, xalqimizni erkin, ma'rifatli bo'lishi uchun kurashgan jadidchilar, mustaqillikni mustahkamlashda fidoyilik ko'rsatayotgan zamonamiz qahramonlari obrazlarini, ko'rsatish talabalarda Vatanparvarlik tuyg'ularini o'stirib, ularning ma'naviyatini shakllantiradi.

“Alisher Navoiy”, “O'tgan kunlar”, “Mahallada duv-duv gap”, “Yor-yor”, “Maftunginam”, “Chinor ostida duel” kabi filmlarni har bir katta-yu kichik sevib

tomosha qiladi. So'nggi vaqtda o'zbek san'atkorlari tomonidan yaratilgan teleseriallardan "Charxpalak", "Ko'ngil ko'chalari"ni barcha teletomoshobinlar zo'r diqqat bilan kuzatib borgan, zero bu ko'rsatuvlar har bir kishini ezgulikka, mehr-oqibatga, hamkorlikka chorlaydi.

Talabalarni ko'rish va eshitish sezgilarini qo'zg'atuvchi ma'naviy mazmun bilan boyitilgan o'quv ko'rgazmali vosita sifatida kinofilmlar ularni fikrini bir joyga to'plab diqqatini o'quv materiallariga tortish imkoniyatini beradi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, kinofilmlar talabaning ma'naviyat bo'yicha mavzularda erkin so'zlashishini va yozma nutqini rivojlanishiga ijobiy sharoitlar yaratish imkoniyatidan foydalanish zarur.

Talabalarning bo'sh vaqtida ma'naviyat va ma'rifat xonasida namoyish qilinadigan teleko'rsatuvlar tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni talabalarga diqqat bilan ko'rsatishni tashkil qilishi yo'li bilan ularda qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik qobiliyatini o'stiradi, ko'rgazmali vositalar orqali talabalarni ma'naviy shakllantirish samarasini oshirishda kinofilmlarni dinamikligi ya'ni o'rganilayotgan hodisa jarayonlarni harakatda, o'zgarishda, rivojlanishda bo'lishini hayotiy aks ettirilishini yoddan chiqarmaslik kerak.

Hozir butun dunyoda ommaviy axborot vositalarining, shu jumladan, televideniyaning ham keng rivojlanayotganligini guvohi bo'lamiz. Televideniye bugungi kunga kelib ijtimoiy boshqaruvning asosiy vositalaridan biriga aylandi. U keng omma ongiga, uning qarashlariga, ishonchlariga, kuchli ta'sir etadigan ma'naviy vosita hamdir. Zero, biz har kuni turli mavzulardagi teleko'rsatuvlar orqali ko'plab axborotlarga ega bo'lamiz.

Televideniye eng ta'sirchan ommaviy axborot vositasi ekanligi sir emas. Televideniye bugungi kunda aholining barcha qatlamlariga juda katta ta'sirini o'tkazmoqda.

Har kuni ishda hamkasblar, o'qishda tengqurlar, oilada esa ota va onamiz, aka-ukalarimiz bilan muloqotda bo'lamiz. Xo'sh, televideniyaning muloqotimizga, ma'naviyatimizga qanday ta'siri bor. Umuman televideniyaning ma'naviyatga ta'siri qay darajada ekanligini o'rganish ham hayotiy, ham ilmiy ahamiyatga ega.

Tadqiqotchilarning ayrimlari televideniye XX asr mo'jizasi, deb hisoblaydilar. Jamiyat a'zolari ma'naviy hayotining ajralmas bo'lagi, zamonaviy texnika bilan jihozlangan televideniya amaliy jihatdan yer kurasining turli mintaqalaridan, xattoki kosmosdan deysizmi, okean tubidan deysizmi, umuman bizga turli-tuman axborotlarni yetkazib turibdi. Bizning hayotdagi o'zaro muloqotlarimizning rivojlanishi, ma'naviy olamimizning boyishi ham bevosita teleko'rsatuvlar materiallarining mazmuniga bog'liqdir. Teleko'rsatuvlar kishilarning ongiga ijtimoiy-siyosiy hayot voqyealari bilan boyitish, ularni zamonaviy fan va san'atga bo'lgan qiziqish va intilishlarini to'ldirish vositasi bo'lsa, so'zsiz rivishda ular insoniyat ma'naviy olami kamolotining zarur omiliga aylandi.

Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, televideniye XX asr fojiasidir. Ular televideniye insoniyat uchun "axborot-ko'ngilochar giyohvandligi" deb hisoblashadi. U insoniyatni o'zining ta'siriga to'shirib katta ommaning tafakkur bilan xulq-atvorini, idroklashini stresgiplashtirib oladi, ularni fantaziyalaridan, ijodiy tashabbuslardan, mustaqil fikrlashidan mahrum qiladi. Televideniye oilada, do'stlar bilan bo'ladigan shaxslararo munosabat imkoniyatini kamaytiradi, muloqotni rasmiy yoki yuzaki qilib qo'yadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bo'sh vaqtning ko'p bo'lishiga qaramay, jahonning ko'p mamlakatlarida teleko'rsatuvlar oqimining ko'pligi natijasida bolalar bilan ota-onaning turli muloqot shakllari sezilarli darajada kamayib borayotir.

Televideniye ko'rsatuvlari bolalar va o'smirlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini ham pasaytirib yuborgan, ular oson yo'lga o'tib olishgan: ya'ni televideniye dan tayyor holda axborotlarni oladilar, bu esa aqliy mushohida ishlatib kitob o'qigandan ancha oson.

Amerikalik tadqiqotchi V.Pekard televideniye ning yoshlar kamoloti uchun xatarli tomonlarini ko'rsatib o'tadi. Televediniye ko'rsatuvlari bolalarda haqiqiy olam haqidagi tasavvurlarining kamayishiga olib kelishi mumkin. Yoshlar me'yordan ortiq teleko'rsatuvlarni tomosha qilsalar, ularning diqqat ko'lamini

toliqadi, fikrlash qobiliyati ko'rsatuvlar andozasiga tushib qoladi. Shu bilan birga televideniya yolg'on-yoshiq, tazyiq, zararli illatlarni birinchi o'ringa qo'yib tayyorlangan ko'rsatuv va filmlarning namoyish etilishi shaxsning barkamolligiga, insonni ichki olamiga, ma'naviyatiga salbiy ta'sir etishi aniq.

Talaba yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan taqqiqotda tomosha qiladigan ko'rsatuvlar qaysi jihatlari bilan "Sizning hatti-harakatingizga o'z ta'sirini o'tkazadi?" degan savol bilan murojat etilgan. Talabalarning 30,3 foizi Vatanparvarlik, 27,4 foizi hallolik, 27,3 foizi maqsad sari intilish, 26,3 foizi vijdonlik, 26,5 foizi rahm-shavqat, 30,3 foizi mehr-oqibat, 26 foizi sharqona lutf va mehmondo'stlik, 26,3 foizi siyosiy jihatlari bilan deb javob berishgan.

Darhaqiqat, O'zbekiston televideniyesining rang-barang ko'rsatuvlari yoshlarimizning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir etib kelmoqda.

Ko'rsatuvlar mazmuni jihatdan keng xalq ommasining ma'naviy ma'rifiy va madaniy rivojiga, estetik dunyoqarashining uyg'unlashuviga ulkan ta'sir ko'rsatmoqda. Televideniya o'tgan asrdanoq targ'ibotchilik vazifasini o'z zimmasiga olgan yangi asrda ham ommaviy axborot vositasining bu turi peshqadamlikni boy berayotgani yo'q. Yaqinda Respublika yoshlari o'rtasida olib borilgan so'rov natijalari ham buni isbotladi. Tadqiqot o'tkazgan "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazi ma'lumotlariga ko'ra yoshlar ma'naviyatiga ta'sir kuchi jihatidan televideniya oila, mahalla va ta'lim muassasalaridan so'nggi to'rtinchi o'rinni egallangan.

Keyingi yillarda matbuot televideniya va radioeshittirishlar faoliyatiga undagi materiallar mazmunga nazar tashlasak, ularning ruhi, mazmuni keskin o'zgarganligini, bozor munosabatlar bilan bog'liq nazariy masalalar, jamiyatimiz muammolariga oid bo'lgan dasturlar ko'payib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Barkamol avlodni tarbiyalashda davlatning, jamiyatning, oilaning ma'suliyatini oshirishda ommaviy axborot vositalarini o'zni muhimdir. Oilalarni mustahkamlashda, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy adolatli himoyalash, yosh

avlodni ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda televideniyaning roli va ahamiyati kattadir.

Talabalarni ma'naviy olamini boyitishda teleko'rsatuvlar materiallarining mazmuniga katta e'tibor qaratish kerak. Qachonki, berilayotgan xabar tezkor, haqiqiy, qiziqarli, mulohazali, ilmiy bo'lsa, hayotni tiniq ko'zgudek ko'rsatsa, u yaxshi sherik qadrli do'st va maslahatchi vositasini o'taydi. Teleko'rsatuvlar kishilarning ongini ijtimoiy-siyosiy hayot voqyealari bilan boyitish, ularning zamonaviy va san'atga bo'lgan qiziqishi va intilishlarini to'ldirish vositasi bo'lsa, so'zsiz ravishda ular insoniyat ma'naviy olami kamolotining zarur omiliga aylanadi.

Darhaqiqat, O'zbekiston televideniyesining rang-barang ko'rsatuvlari yoshlarimizning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir etmoqda. Jumladan, "O'talar so'zi-aqlning ko'zi" ko'rsatuvini barcha yoshdagi kishilar qatori yoshlarimiz ham zo'r e'tibor bilan kuzatib borishar ekan. Mana necha yildirki, bu dasturda ko'tarilayotgan mavzular o'zining dolzarbligi, ommabopligi, hayotiyliigi bilan tamoshobinni maftun qilayotir. Bu ko'rsatuvlar yoshlarni doimo halollikka chaqiradi. Vatanni, millatni sevishga undaydi. O'zbekiston telekanali orqali har kuni namoyish etiladigan "Ma'naviyat dasturi" muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki, bu dasturga har bir ko'rsatuvda yoshlarimiz ongida milliy ma'naviyatimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ota-bobolarimizning turmush tarzi, ularning hayoti ibrat tarzida ko'rsatib boriladi. Bu ko'rsatuvning har bir soni kishilarni o'ziga jalb eta oladi. Ko'rsatuv mavzulari yoshlarimiz ma'naviyatiga salbiy ta'sir etuvchi zo'rovonlik, buzg'unchilik, axloqsizlik va boshqa salbiy jihatlariga e'tibor qaratilgan. Ularni zararli oqibatlarini misollar tariqasida yoritib beriladi.

"E'tiqod mustahkamligi yo'lida" ko'rsatuv orqali yoshlarimizni islom dini va uni ma'naviy kamolotimizdagi roliga katta e'tibor qaratiladi. Bunda islom dini, uning mohiyati, inson qalbi sir asrorlari talqin etiladi. Imom al-Buxoriy, at-Termiziy kabi xadisshunoslarning ta'limotlaridan misollar keltiriladi.

“Vatanparvar” ko’rsatuvi yoshlarimizni mamlakatimiz qurolli kuchlari nufuzi va imkoniyatlari, milliy armiyamizda xizmat qilayotgan yoshlarimizni hayotini doimiy ravishda keng yoritib bermoqda. Bu ko’rsatuv yoshlarda Vatanga mehr tuyg’usini shakillantiradi. “Tarix ko’zgusi”, “Ikki daryo oralig’i” ko’rsatuvlari yurtimiz tarixi, madaniyati, buyuk mutafakkirlarimiz, ularni hayoti va ijodi, jahon ilmi va faniga qo’shgan hissasini batafsil yoritib bermoqda.

“Ibrat”, “Iftixor” ko’rsatuvi orqali Vatanimiz taraqqiyotiga xalq xo’jaligi, iqtisod, ilf-fan, texnika, sport, ijtimoiy va ma’naviy hayotimizga ulkan ijobiy hissa qo’shgan yurtdoshlarimizning hayot yo’li ibrat tariqasida namoyon etildi. “Vatan manzillari”, “Yurtim bo’ylab” dasturlari orqali yurtimizdagi ulkan bunyodkorlik ishlari, yurtimizning chekka joylarida amalga oshirilayotgan islohotlar, odamlarni ongi tafakkurida bo’ladigan o’zgarishlar, ulardagi tashabbuskorlik, yurtimiz ravnaqi uchun o’zlarining xissalarini qo’shishga harakat qilishlarini ko’rish mumkin.

Talabalarni ma’naviy va ilmiy dunyoqarashini shakllantirish televideniya tashkil etilgan va namoyish qilinadigan “Zakovat”, “Intelektual ring”, “O’yla, izla, top”, “Bilimdonlar” ko’rsatuvlari ommaviy dasturlarga aylangan. Bu ko’rsatuvlarning ta’lim muassasalaridagi klublari ham tashkil etilgan. Bu tadbirlarda talabalarni juda keng qamrovini o’zida jamlagan. Talabalarni ko’pchiligi ushbu ko’rsatuvlarda ishtirok etish istagan bildirgan.

“Men yoshlikman”, “Yoshlar vaqti” ko’rsatuvlari yurtimiz yoshlari hayoti, ilm-fan, sport va boshqa sohalarda erishilayotgan yutuqlar, bugungi yaratib berilgan sharoitlardan unumli foydalanish: vatanimiz ravnaqi uchun o’z hissamizni qo’shish, yoshlarni ma’naviy barkamollik sari undaydi. “Axborot”, “Davr” ko’rsatuvlari Respublikamizda sodir bo’layotgan siyosiy iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, qishloq xo’jaligi va boshqa sohalardagi axborotlarni doimiy ravishda yoritib bormoqda. Bu ko’rsatuvlar talabalarni siyosiy saviyasi, tafakkurini boyitishga xizmat qiladi.

Oynai jahonda ko’satiladigan “Vatan timsollari”, “Rassom O’zbekiston”, “Barhayot navolar”, “Bu oqshom”, “G’azal bo’stonida”, “Oltin meros”

ko'rsatuvlari va turli mavzularga bag'ishlangan kinofilmlar bizga, shuningdek qalbida insoniylik tuyg'usi mujassamlashgan har bir talabaga qandaydir ruhiy kayfiyat va olam-olam zavq bag'ishlaydi. Talabalarni fikr-mulohaza yuritishga, ma'naviy qadriyatlarimizni avaylab-asrashga, ularni kelgusi avlod uchun saboq qilib ko'rsatishga, ta'lim-tarbiyada keng o'rin tushunishni anglab olishga va o'rganishga undaydi.

Bu ko'rsatuvlarni ko'rgan har bir talaba ota-onaga hurmatda, Vatanga muhabbat, sadoqatda bo'lish, insonni ulug'lash, milliy g'urur, odamiylik qadriyat va mehnatsevarlik kabi fazilatlarining oliyjanobligini tushunib oladi. Masalan, "Ertaklar yaxshilikka yetaklar", "Dono bobo o'gitlari", "O'talar so'zi-aqlning ko'zi", "Juma oqshomi", "Mening mahallam" bolalar va kattalar uchun beriladigan ko'rsatuvlar yosh avlodni ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi asosiy omillardan hisoblanadi.

"O'zbekiston Vatanim manim" ko'rik-tanlovini teleekranda ko'rganlarning yuragini Vatan sevgisi bilan to'lib toshiradi. Unda shunday qo'shiqlar kuylanadiki, vujudi Vatanga va Vatan tarixiga muhabbat bilan yo'g'rilgan.

Tadqiqotimiz mavzusi bo'yicha O'zbekiston teleradiokompaniyasi dasturlari asosida namoyish qilinayotgan ko'rsatuvlarni tahlil qilish uning faoliyatini quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor berish lozimligini ko'rsatmoqda:

-mamlakatda yashayotgan barcha illatlarning o'ziga xos jihatlari va mushtarak mahsullarini hisobga olgan holda millatlararo o'zaro hurmat, totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashni targ'ib etish;

-jahon fani, madaniyati, ma'rifati mamlakatlarning tajribasini targ'ib etish;

-fuqarolarning loqayd tomoshabindan faol mushohada va teran idrok etuvchi zamon va makon farzandiga aylanishiga imkon yaratishni targ'ib etish;

-O'zbekistonning tashqi va ichki siyosatida erishgan yutuqlarini, bu yutuqlarning bugun va kelajak uchun ahamiyatini anglatish orqali milliy iftixor tuyg'usini tarbiyalashga erishildi.

Bolalar hayotida televideniye eng yoshlik davridan ularning eng yaxshi do'stlari va maslahatchisi sifatida muhim rol o'ynaydi. Bolalar televideniye orqali

yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik to'g'risida tushunchaga ega bo'ladilar. Zangori ekran orqali ular birinchi ertaklar, bolalar qo'shiqlari va bolalar hayotiga bag'ishlangan turli-tuman sport va san'at ko'rsatuvlarini mufassal ko'rib boradilar.

Televideniye asrimizning san'ati orasida eng sevimlisiga aylanib bormoqda. U teatr, kino, me'morchilik, sport, muzey va boshqa san'at turlarining muvaffaqiyatlarini keng xalq xalq ommasiga ekran orqali yetkazmoqda va kishilarimizni san'at turlari mavsumidan estetik zavq olib, madaniy hordiq chiqarish va ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatish kabi mas'uliyatli vazifani bajarmoqda.

Respublikamiz teledasturlari ko'rsatuvlaridan yosh havaskorlar to'garaklari faoliyatlariga alohida e'tibor qaratilgan, chunki havaskor faoliyati, bellashuvlari yosh avlodni ma'naviyat va ma'rifatga, barkamol inson bo'lib yetishuviga ulkan hissa qo'shmoqda. Mustaqilligimizning 7 yilligiga bag'ishlab Namangan shahrida o'tkazilgan "O'zbekiston Vatanim manim" ko'rik-tanlovining teleekranda namoyish qilinishi teletomoshabinlarda go'zallikka intilish, Vatanga va o'tmish qadriyatlarimizga mehr tuyg'ularini uyg'unlashuviga chorladi.

O'zbekiston milliy xalq ma'naviyat madaniyati qadim tarixga ega. Bu ma'naviyat dunyo xalqlari madaniyatida, ma'naviyatida o'chmas iz qoldirgan ulug' olimlar, shoirlar, fan arboblari bilan mashhurdir. Televideniye ko'rsatuvlarida ular to'g'risida muntazam ravishda eshittirishlar olib borish yanada jadallashmoqda.

Zangori ekran orqali Respublika konsert zallaridan olib ko'rsatilayotgan konsertlar va boshqa ko'pgina ma'naviy-madaniy tadbirlarda ayrim ijrochilar , milliy urf-odatlarimizga e'tiborsizlik ruhida ekanliklari kishilarni ranjitadi. Konsert ansambllarimizning ba'zi bir solistlari, ijrochi, cholg'ulari, milliy cholg'u asboblari va o'zbek milliy kiyimlaridan kam foydalanayotganlaridadir.

Televideniye mafkura ta'lim, targ'ibot ishining eng muhim tarmoqlaridan biri sifatida qishloq madaniyatini rivojlantirishda XX asr mo'jizasi va XXI asr targ'ibotchisi darg'asi bo'ladi degan umiddamiz.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik jarayon uyg'unlashuvi avj olayotgan ayni vaqtda kishilarimizni madaniy, ma'naviy, m'rifiy saviyasini, axloqiy, estetik didini oshirishda televideniye ko'rsatuvlari faoliyati beqiyosdir. Shu bilan birga televideniya ayrim kamchiliklardan ham xoli emas. Televideniye ekranda ko'pincha eshittirishlarning takrorlanishi ba'zi hollarda teledasturlarda namoyish etilishi kerak bo'lgan badiiy filmlarni aniq yozilmasligi yoki ko'rsatilishi kerak bo'lgan film qolib, uning o'rniga boshqasini namoyish etish hollari uchrab turadi. Nazarimizda kundan-kunga gullab, rivojlanib borayotgan qishloq va shahar ko'rinishidagi shaharlarimiz madaniy, ma'rifiy markazlarimiz to'hrisidagi televizion eshittirishlar tor doirada bo'lib qolayotir, televideniye texnikasining ulkan rivojiga qaramasdan, viloyatlarimiz, qishloq xo'jaligi, fan va texnika, madaniyat va san'at rivojiga bag'ishlangan ko'rsatuvlarning cheklanganligi ham maqsadga muvofiq emas.

O'zbekiston markaziy televideniyesi, viloyatimiz va faoliyat ko'rsatayotgan televizion markazlar xalqimizning ma'naviy va ma'rifiy-estetik rivojlantirishning o'chog'iga aylanmog'i lozim.

Xulosa qilib aytganda, televideniye ko'rsatuvlvri yoshlarning ma'naviy kamolotini yuksaltirishga xizmat qilishi kerak. Zero, bu davr talabidir.

2.2. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy shakllantirish bo'yicha OO'Yu va jamoatchilikning hamkorligi

Oliy o'quv yurti talabalarini ma'naviyatli shaxs va yetuk mutaxassislar qilib shakllantirish maqsadida ularning ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha Respublikamiz qator amaliy ishlarni bajarib kelmoqda. Jumladan, 1994 yil 23-aprelda Prezidentimiz I.A.Karimov Farmoni bilan Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi" uning muassisligida chiqadigan "Tafakkur" jurnali tashkil etildi. Bu milliy ma'naviyatni tiklash, uni taraqqiy ettirish, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar mohiyatini aholining keng qatlamlari orasida keng targ'ib qilish mexanizimini yaratish yo'lida muhim strategik qadamlardan biri bo'ldi.

1996 yil 9-sentyabrda Prezidentimiz I.A.Karimovning "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Farmoni imzolandi.

Prezident I.Karimovning "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 2006 yil 29-avgustda qabul qilgan PK 491-son Qarorida Oliy o'quv yurtlar oldiga Vatanimiz mustaqilligining- ma'naviy-asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va milliy urf-odatlarimizni ko'z qorachig'idek asrab avaylash, talabalar ongi va qalbiga ona yurtga muhabbat tuyg'ularini chuqur singdirish vazifalar har qachongidan ham dolzarb masalaga aylanishi ta'lim-tarbiya ishini tomomila yangicha kuch-g'ayrat, aniq mo'ljal, zamonaviy targ'ibot usuli asosida ishlashni talab qiladi.

Ushbu qarorga muvofiq Respublika "Ma'naviyat ma'rifat kengashi" negizida "Milliy g'oya va mafkuraviy ilmiy-amaliy markazi" va Respublika "Ma'naviyat targ'ibot markazi" va ularning joylardagi bo'limlri tashkil etildi va faoliyat olib bormoqda.

Shu munosabat bilan SamDU "Ma'naviyat targ'ibot markazi" talabalarning ma'naviyatini shakllantirish jamoatchilik bilan hamkorligi bo'yicha faoliyatini tahlil qilamiz.

Ma'naviyat-ma'rifat markazida ma'naviyat-ma'rifat bo'yicha tarbiyaviy ishlar aniq reja asosida olib borilmoqda. Ma'naviyat-ma'rifat faoliyatidagi asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'rsatilgan vazifalarni, Prezident farmonlari, asarlari va nutqlari hamda Oliy Majlis sessiyalarida ko'rilgan masalalar, Oliy ta'lim vazirligining buyruqlari va ko'rsatmalarida ilgari surilgan vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan.

Talabalar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat bo'yicha ishlarimizning asosini tashkil etadi.

Talabalarni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash uchun, avvalo, oliygoh rahbar xodimlari, professor-o'qituvchilar, murabbiylarni milliy istiqlol g'oyasi mazmun - mohiyati bilan chuqur tanish bo'lishlari lozim. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2002 yil yanvardagi "Respublika Oliy va O'rta maxsus ta'lim muassasalar"i uchun "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyilar" fanidan malaka oshirish kursini tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'i asosida "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyilar" fanidan oliygoh rahbar xodimlari uchun doimiy faoliyat ko'rsatuvchi 10 soatlik malaka oshirish kursi tashkil etildi va kursga prorektorlar, fakultet dekanlari, dekan o'rinbosarlari, kafedra o'rinbosarlari, kafedra mudirlari tinglovchi sifatida jalb qilindi. Malaka oshirish kursi tinglovchilarning olgan bilimlarini test sinov asosida baholaydi.

Ma'lumki, talabalar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda suratli ko'rgazmali vositalarning ham alohida o'rni bor. Shu maqsadda universitetning barcha o'quv va ma'muriy binolari Milliy istiqlol g'oyasi talablari asosida "Asosiy qonun saboqlari", "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar", "Asrlarga teng yillar" kabi plakatlar bilan jihozlandi.

O'quv yili boshida oliygohda mavjud kutubxona va qiroatxonalar, bo'limlar, fakultetlar, gumanitar-ijtimoiy kafedralar, talabalar o'ylari hamda ma'naviyat va ma'rifat sohasiga doir jamoat tashkilotlari "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" (oliy ta'lim muassasalari uchun qo'llanma) va "Milliy

istiqlol g'oyasi" asosiy tushuncha va tamoyillari (izohli ko'rgazmali vositalar to'plami) kabi kitoblar bilan ta'minlangan.

Milliy istiqlol g'oyasini talabalar ongiga singdirishda taniqli jamoat va davlat arboblari bilan uchrashuvlar o'tkazishga ham katta e'tibor berilmoqda. Xususan, taniqli shoir Azim Suyun, taniqli bastakor Habibullo Rahimov, O'zbekiston xalq artisti Yodgor Sa'diyev, siyosiy sharhlovchi Qobilbek Karimbekov bilan o'tkazilgan uchrashuvlar qizg'in-savol javob asosida bo'lib, talabalarda juda katta ta'ssurot qoldirdi.

Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi tomonidan har hafta juma kunlari tashkil etilayotgan "Ma'naviyat soatlari"da ko'zlangan maqsad ham talabalar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishdir. Ma'naviyat soatlari siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy yo'nalishlarda olib borilmoqda. O'tgan o'quv yilida siyosiy - ijtimoiy yo'nalishda "O'zbekiston 20 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida", "O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati" kabi mavzularda, iqtisodiy yo'nalishda "O'zbekistonning iqtisodiy poydevorini mustahkamlash omillari", "Iqtisodiyotni erkinlashtirish-mamlakat ravnaqining muhim omili" kabi mavzularda, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat yo'nalishlarda "Milliy istiqlol mafkurasi va g'oyasining umuminsoniy xususiyati", "Ona tilim-qudratim, shonu-shuhratim", "Islom dini va umuminsoniy qadriyatlar", "Vatan sajdagoh kabi muqaddas", "Alisher Navoiy badiiy ijod mulking sultoni", "8-mart xotin-qizlar bayrami", "navro'z-yasharish, baxt-quvonch bayrami", "xalqaro terrorizm-insoniyat dushmani" kabi mavzularda, huquqiy yo'nalishda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligi"ga bag'ishlangan ma'naviyat soatlari o'tkazildi. "Ma'naviyat soatlari"ning samaradorligini oshirish maqsadida tegishli mavzular bo'yicha yirik mutaxassislar jalb etilgan.

Jismoniy madaniyat va sport hamda tibbiy tayyorlov kafedralari ham talabalarni ma'naviy-ma'rifiy, jismoniy tarbiyalashda o'z hissalarini qo'shib kelmoqda.

Sport klubi qoshida 10ta sport to'garaklari muntazam faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bu sport to'garaklarida 1000 dan ziyod talaa yoshlar o'z sport mahoratlarini oshirib kelmoqdalar.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limida talabalarning ma'naviy tarbiyasida terrorism, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, huquqbuzarlik, giyohvandlik, OITS kasbi illatlarga qarshi kurashish, ularning oldini olish, ular keltirib chiqaradigan mudhish oqibatlardan talabalarni ogoh etishga alohida e'tibor qaratadi. Shu maqsadda huquq-targ'ibot, diniy, sog'liqni saqlash idoralari va boshqa tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda kompetks ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, ular ishtirokida amaliy anjumanlar, uchrashuvlvr, davra suhbatlari muntazam o'tkazilib, talabalar ushbu markazda yaratilgan spektakllarni, sahnalashtirgan tomoshalarga ommaviy ravishda olib borilgan.

Ma'lumki, hozirgi davr barkamol avlod tarbiyasi va jamiyat taraqqiyoti o'sib kelayotgan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lishi bilan chambarchan bog'liq. Buning uchun mustaqil Respublikamizda hukumatimiz tomonidan barcha sharoit va qulayliklar yaratilgan. Lekin inson sog'ligiga putur yetkazuvchi, tashqaridan mamlakatimizga kirib kelayotgan SPID kasalligi eng og'ir murakkab muammolardan bo'lib qolmoqda. "Asr vabosi" nomini olgan ushbu immunitet yetishmasligi xastaligini oldini olish nafaqat tibbiyot xodimlarini balki barchamizning muhim ishimiz bo'lib kelmoqda.

Bu borada tibbiy tayyorlov kafedrasi a'zolari yosh avlodni ham jismoniy, ham ma'naviy-ma'rifiy jihatjan sog'lom qilib tarbiyalashga katta ahamiyat bermoqdalar.

Kafedra OITS va giyohvandlikka qarshi kurash mavzularida stend va devoriy gazetalar tashkil qilgan. Kafedra o'qituvchilari OITS (ortirilgan immunitet tanqisligi sindromi) va giyohvandlikka qarshi kurashish mavzularida talabalar orasida, ma'naviyat-ma'rifat soatlari o'tkazilib, hujjatli kino-videofilmlar namoyish etib kelinmoqda.

"Samarqand universiteti" gazetasida SPID va giyohvandlikning oldini olish mavzularida kafedra o'qituvchilari tomonidan muntazam maqolalar berib borilgan.

Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi talabalarni milliy g'oya va mafkuraning nazariy asoslari, metodologik tomonidan xabardor qilish va ularni shu ruhda tarbiyalashni yanada kuchaytirish maqsadida o'quv yilida ma'naviy-ma'rifiy soatlarning mukamal rejasi ishlab chiqildi va amalga tatbiq qilingan.

Ma'naviyat-ma'rifat soatlarida "O'zbekiston 20 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida", "O'qituvchi-millat tayanchi" (O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan), "Jamiyatimizning rivojlanishida iqtisodiy islohotlarning o'rni va roli", "Milliy istiqlol g'oyasini shakillantirishda tarbiyaning uslub va vositalari", "Ona tilim-qudratli, shonli shuhratli" (O'zbek tiliga davlat maqomi berilganligining 23 yilligi munosabati bilan), "Xalqaro terorizmga qarshi kurashish-davr talabi", "Yoshlar tafakuri va zamon", "OITS-dunyo ofati" (Butunjahon OITS kasalligiga qarshi kurashish kuni munosabati bilan), "Qomusimiz-baxtimiz" (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 20 yilligi munosabati bilan), "Mahalla, oila qadriyatlari milliy istiqlol mafkurasining g'oyaviy tayanchi", "Vatan sarhadlari ishonchli qo'llarda" (Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan), "Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda talaba yoshlarning roli", "Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkirlari", "She'riyat mulkinging sultoni" (Alisher Navoiy tavalludi munosabati bilan), "Vatan mustaqilligiga, ravnaqiga mening qo'shgan hissam", "Ayol borki, olam munavvar" (8-mart xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan), "Kuch adolatdadir" (Sohibqiron Amir Temur tavalludi munosabati bilan), "Marhumlar yodi, tiriklar e'zosi muqaddas" (Xotira va qadirlash kuni munosabati bilan), "Sport do'stlik elchisi", "Oliy ta'limdagi islohotlar-kelajak taraqqiyotining omili", "Giyohvandlik va uning salbiy oqibatlar", "O'zbekistonda demokratik jarayonlar" kabi xususan yil davomida barcha fakultetlarda dolzarb mavzularda ma'ro'za, suhbatlar o'tkazilgan. Ma'naviyat-ma'rifat soatlarida bu masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Markaz vakillari Respublika, viloyat televideniyesi, matbuotda muntazam chiqishlar qilmoqda. Masalan STV va STRda "Demokratiya nima? Siz qanday

tushunasiz?”, “Hayot, milliy g’oya va men” mavzularda professor F.Nabiyev, kafedra mudiri professor J.Yaxshilikovlar qatnashdilar.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning ikkinchi bosqichi amalga oshirilayotgan shu kunlarda bizning oldimizda ma’naviy-ma’rifiy faoliyatini yangicha mezonlar asosida tashkil etish vazifasi turibdi. Prezintimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va maorifni yuksaltirish milliy uyg’onish g’oyasini ro’yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu vazifalarni amalga oshirishda, ya’ni ilmiy-ma’naviy-ma’rifiy jihatdan komil avlodni tarbiyalashda qiziqishlari, intilish va maslaklari bo’lgan talabalarni o’ziga jalb etgan uyushmalar klublar ham alohida rol o’ynaydi. Klublar nafaqat talabalarni ixtisosligi bo’yicha bilimlarini kengaytiradi, balki ularning ijtimoiy-siyosiy tafakkur tarzini, erkin fikrlash ko’nikmalarini shakillantirish va faollashtirish talablarning darsdan bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazishda ham o’ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan Respublikamiz Oliy o’quv yurtlarida mavjud klublarning talabalarni ma’naviy shakillantirish bo’yicha faoliyatini takomillashtirish bo’yicha aniq taxshislar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi. Jumladan, SamDUda uzoq yillardan buyon faoliyat yuritib kelayotgan nufuzli klublardan biri o’zbek filologiyasi qoshidagi “Shalola”dir. Klub universitet fakultetlari talabalrining ijodiy qobiliyatini takomillashtirish, ularni matbuot sahifalariga olib chiqish, boshqa o’quv yurtlarining ham talabalarini o’z jamoasiga tortib, Samarqand yoshlar adabiy jamoatchiligini shakillantirish kabi ezgu maqsadlarni o’z oldiga qo’ygan. Hozir klubning 100ga yaqin a’zosi bor. Klub har oyda bo’ladigan mushoira xarakteridagi yig’ilishlarini yozuvchilar uyushmasi Samarqand bo’limi, o’zbek filologiya fakulteti dekani va boshqa adabiyot mutaxassislari bilan hamkorlikda o’tkazib kelmoqdalar.

“Shalola” bag’rida kamol topgan yosh ijodkorlarning ko’plab kitoblari nashr etilgan. Jumladan, Uyg’un Ro’ziyevning “Atirgul” romani(2000y), “Tuyg’ular” she’riy to’plami (1997y), Muhabbat To’xtayeva va Orif Tuxtashevlarning “Quyon

yili” (1995y), Nodir Jonuzoqning “Tomchilar” (1997y), Nigorabonuning “Yurak chizg’ilari” (1997y), Feruza Tog’ayning “Muhabbat manzili”(1998y) kabi, yuzlab she’rlari, maqolalari matbuotda va turli to’plamlarda nashrdan chiqqan.

Universitetda faoliyat ko’rsatayotgan fakultetlararo “Oilam” klubi talabalar ichkilibozlik, zo’ravonlik, giyohvandlik, huquqbuzarlikka qarshi kurashish, oiladagi turli xil kelishmovchiliklarga barham berish, ularni jamiyatda tutgan o’rmini ko’tarish, hamda sog’lom hayot tarzini yaratish bo’yicha bir qator ijobiy ishlarni amalga oshirmoqda. Klubga professor-o’qituvchilar, 35 nafar talaba qizlar a’zo qizil xoch va qizil yarim oy jamiyati bilan hamkorlikda faoliyat yuritmoqda. Klub tomonidan “Yoshlar o’rtasida giyohvandlikning oldini olishda, oilaning roli, “Giyohvandliksiz-sog’lom hayot tarzi”, “Oila va ta’lim muassasalari yordamida giyohvandlik va ichkilikbozlikning oldini olish”, “Qaynona va kelin do’stligi oilaning tinchligi”, “Yoshlar o’rtasida kiyinish madaniyati”, “Yoshlar tarbiyasida mahalla oqsoqallari va qariyalarning tutgan o’rni” kabi ko’plab dolzarb mavzularda mahalla yoshlari, xotin-qizlar, talaba-yoshlar o’rtasida uchrashuvlar o’tkazilib kelmoqda. Bundan tashqari klub a’zolari tomonidan xotin-qizlar, yoshlar uchun o’quv qo’llanmalari nashr etilgan.

Milliy istiqlol g’oyalarini talabalar ongiga singdirish, ularni istiqlolimizning jonkuyarlari, haqiqiy Vatanparvar va bilimli insonlar qilib tarbiyalash borasida katta ishlar amalga oshirildi. Universitet bosh binosi foyesida milliy istiqlol g’oyalarini tarannum etuvchi “ma’rifat bo’stoni: kecha, bugun va kelajagimiz jilolari” deb nomlangan badiiy kompazisiyasi yaratildi. Alisher Navoiy muzeyi, zoologiya muzeyi, geologiya, arxeologiya muzeylari faoliyati yanada takomillashtirildi.

Alisher Navoiy muzeyi 1994yilda universitet xiyobonida ulug’ shoir va matufakkir Alisher Navoiyning hayoti va ijodini aks ettiruvchi muzey tashkil etildi. Muzeyni tashkil etishdan maqsad Samarqand viloyati hamda ushbu mintaqadagi aholi o’rtasida Alisher Navoiyning adabiy merosini targ’ib etishdir. Dastlab muzey Samarqandagi O’zbekiston respublikasi madaniyati va tarixi

muzeyi tasarrufida edi. Shahar hokimining 2000 yil 12 apreldagi 210-sonli qaroriga muvofiq muzey Samarqand davlat universiteti ixtiyoriga o'tkazildi.

Universitet rektorining 2000 yil 22-iyundagi 144-sonli buyrug'iga aosan muzey o'zbek filologiyasi fakultetiga birlashtirilgan.

Alisher Navoiy muzeyida shoirning hayoti va ijodini yoritib beruvchi ko'plab qimmatbaho eksponatlar saqlanmoqda. Jumladan, Alisher Navoiy lirikasi va epik asarlariga oid qo'lyozmalari, bular orasida "Xamsa"ning nodir nusxalari ham mavjud. Muzeyda nafaqat Alisher Navoi, balki unga zamondosh o'lgan shoirlar, jumladan, Zahriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodiga doir alohida ma'lumotlar keltirilgan, asarlaridan namunalar qo'yilgan.

Muzeyda buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixiga doir asarlar ham mavjud bo'lib, ularning aksariyatini Navoiyshunos olimlar: Sadridin Ayniy, Abdurahmon Sa'diy, Vohid Abdullayev, botirxon valixo'jayev kabi allomalarining ilmiy-izlanishlari natijasi bo'lgan yirik tadqiqotlar tashil etadi. shuningdek, Alisher Navoiyning bizning zamonamizda nashr etilgan asarlarining hamma nusxalaridan namunalar qo'yilgan.

Muzeyda Alisher Navoiyning o'lmas siymosi ko'plab suratlarda mayin va nozik ranglar uyg'unligida aks ettirilgan. Xususan, bular orasida Navoiyga zamondosh buyuk musavvir Jamollidin Behzod asarlari alohida o'rin tutadi. Bundan tashqari, bizga zamondosh rassomlar hamda haykaltaroshlarning Alisher Navoiy tasviriga bag'ishlangan asarlari ham ko'rinarli joylarga qo'yilgan.

Alisher Navoiy muzeyi ilm va ta'lim markazi hisoblanadi. O'zbek, rus va tojik filologiyalari hamda pedagogika va tarix fakultetlari talabalariga Alisher Navoiy adabiy pdagogik va ma'naviy merosini targ'ib etishga bag'ishlangan shu yerda o'tkazilmoqda. Shuningdek, muzeyga Samarqand shahri maktab o'quvchilari, turli oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining talabalari ham tashrif buyurib, buyuk shoir ijodiy merosidan bahramand bo'lmoqdalar.

Geologiya muzeyining tashkil etilishi 1934-yilda geologiya-geografiya fakultetining ochilishi bilan bog'liq. Poleoltologiya qadimgi hayvon va

o'simliklarning qoldiqlarini o'rganadigan fan bo'lib, u geologiyaning bir qismi hisoblanadi.

Muzeyda Janubiy Amerika Alp tog'lari, Italiya, Xitoy, Mug'iliston, Hindiston, Yugoslaviya, Germaniya, hatto Afrikadan toshga aylangan yoki toshlarda izlari qolgan hayvon va o'simlik qoldiqlari mavjud. Eksponatlar tarkibida paleozoy, mizozoy, erasida yashagan turli xil umurtqali va umurtqasiz hayvonlar noyob o'simlik qoldiqlari to'plangan. Ayniqsa mezozoy erasida yashagan chig'anoqlar, baliqlar kolleksiyalariga juda boy bu toshda qolgan qoldiqlar, izlarga yog'ochdan suyanchiqlar yasalgan va simlar bilan maxkamlangan. Ko'pgina noyob baliqlar va boshqa suv hayvonlarining qirilishi yanada aniqroq bo'lishi uchun ularning shakillari albasterlardan yasalgan. Poleozoy, mezozoy, koylozoy eralarida yashagan ba'zi hayvonlar va o'simliklarning rasmlari chizilib, ularga sharhlar yozilgan, hayvonlar yashagan muhit manzarasi chiroyli chizmalarda o'z ifodasini topgan.

Muzeyning ikkinchi qismi tog' jinslari va materiallar bo'lib, ular ham dunyoning turli burchagidan keltirilgan. Bu eksponatlarning umumiy soni 500 danda ortiq. Muзей ekpponatlari yong'oq yog'ochlaridan o'ta nafis yasalgan turli shakldag 30-40 yillardagi mohir ustolarning ijodiy mehnati mahsuli hisoblangan javonlarga joylashgan.

Muzey kelajakda faqat geolog mutaxassislar uchungina emas, balki lisey va kollej o'quvchilari uchun yer tarixini o'rganadigan maskanga aylanadi.

Zoologiya muzeyi Markaziy Osiyoda yagona bo'lib, 3 mingdan ortiq turli-tuman hayvon turlariga mansub bebaho eksponatlarga ega. Muзейda 10 ming turli tuman hasharotlarning o'z ichiga olgan. 100-119 ming hasharotlardan iborat entomologik kolleksiya mavjud.

Zoologiya muzeyida O'zbekiston Respublikasining Fan va texnika Davlat qo'mitasi granti asosida "O'zbekistonning nodir va yuqolib borayotgan hayvonlari ekologiya muzeyining roli" mavzusida 1996 yildan buyon ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Bundan tashqari, hozirgi kunda eng dolzarb masalalar: ekologik torbis, ta'lim, mafkura, ong masalalari bo'yicha maxsus-izlanishlar olib borilmoqda, qator seminarlar, anjumanlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar o'tkazilmoqda. Muzei xodimlari nodir, muhofazaga mo'htoj hayvon turlari bo'lgan Zarafshon qirg'ovuli, buxoro bo'g'isi, xolgul, jayron, nodir yirtqich qushlarni saqlab qolish, ularni ko'paytirish borasida ham keng miqyosda izlanishlar olib borilmoqdalar.

Biologiya fakulteti issiqxonasi qariyb 32 yildan buyon mavjud bo'lib, u asosan biologiya fakulteti talabalari uchun amaliy dars o'tadigan ayrim kurs va malakaviy bitiruv ishlarini bajaradigan laboratoriyalardir. Hozirgi kunda issiqxonada 200 ga yaqin turdagi o'zga yurtlardan keltirilgan va mahalliy o'simliklardan to'plangan namunalar o'stiriladi. Ko'pchilik o'simliklar qora dengiz bo'yi Baltiqbo'yi mamlakatlaridan, Kiyev-Sanktpeterburg, Maskva botanika bog'laridan keltirilgan. Issiqxonada antiqa o'simliklardan kaktuslar, palmalar, kofe daraxti, lavr daraxti, banan va boshqa bir qator o'simliklar bor.

Universitetda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari va ma'ro'zalarida e'tirof etilayotgan milliy istiqlol g'oyasi asosida barkamol avlodni shakillantirish, ularda Vatanda muhabbat, o'z xalqiga sadoqat, istiqlolga fidoyilik, mustaqil va erkin fikrga ega bo'lgan, irodasi mustaqil, iymoni butun yoshlarni voyaga yetkazish kabilar tashkil etadi. Zero, talaba yoshlarning o'z intilektual qobiliyatlarini, iste'dodlarini namoyish etishlari uchun sog'lom muhit yaratish, ularni qo'llab-quvvatlash, kelajakka ishonch uyg'otish bizning burchimizdir.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limi o'z faoliyatini Universitet oqsoqollari, nuroniylar va murabbiylar kengashlari, "Kamolot" YoIX universitet boshlang'ich tashkiloti, xotin-qizlar qo'mitasi, xodimlar va talablar kasaba uyushmalari "Sog'lom avlod" uchun kabi jamoat tashkilotlari talabalarning o'qishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda "Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 2004 yil 19-yanvardagi 12-sonli oliy ta'lim muassasalarida "ma'naviyat kuni" tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'i muhimdir. "Ma'naviyat kuni"da talablarni

milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy dunyo qarashini shakillashirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazilmoqda.

Unda talabalar ommaviy ravishda shahrimizdagi tarixiy va mustaqillik davri obidalarga, ziyoratgohlarga, muzeylarga, tetar, kinoteatr, konsertlarga olib borilmoqda, turli uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil qilingan. Jumladan, shoira Zulfiya tavalludining 97 yilligiga bag'ishlangan tadbir, shoir Eshqobil Shukur va "Turkiston" gazetasi bosh muxarriri, shoir Salim Ashur bilan talabalarning ijodiy uchrashuvlari va boshqa tadbirlar o'tkazildi. May oyi "Ma'naviyat kuni" tadbirlarida O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludiga 58 yilligiga bag'ishlab tadbirlar o'tkazish rejalashtirildi.

Universitetda talabalarning ma'naviy tafakurini shakillantirishda "Mustaqillik-mening taqdirimda" rukni ostida taniqli olimlar, yozuvchilar, shoirlar va boshqa mustaqilligimiz uchun, Vatanimiz ravnaqi uchun o'zining munosib hissasini qo'shayotgan insonlar bilan o'tkazilayotgan uchrashuvlar muhim omil bo'lmoqda. Jumladan, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov, yozuvchi O'tkir Hoshimov, "Ma'naviyat guliston" kitobi mualliflari B.Do'stqoriyev, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi bosh muharriri M.Abdullayev shoir Omon Matchon, adabiyotshunos olimlar Najmiddin Komilov Sul-tonmurod Olimov va boshqa taniqli olimlar, shoirlar, san'atkorlar bilan o'tkazilgan uchrashuvlar talabalarda katta tassurot qoldirmoqda.

Talabalarning ma'naviyat-ma'rifatini shakillantirishda "Samarqand universiteti" gazetasining o'rni beqiyosdir. Gazeta sahifalarida Prezident I.A.Karimov rahbarligida yurtimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi islohotlar, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning ijrosi, milliy istiqlol g'oyasi va boshqa dolzarb mavzularda maqolalar borib borilmoqda. Gazetaning "Kursdosh" sahifasida universitet talabalarining o'qishdan bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazilayotganliklari, klublar, to'garaklar faoliyati, talabalar hayotidagi qiziqarli hikoyalar va ijodkor talabalar ijodidan namunalari, iqtidorli talabalar bilan suhbatlar yoritilgan.

Talabalar turar joyida olib boriladigan tarbiyaviy, ma'navif-ma'rifiy ishlar ham bo'limning doimiy e'tiborida turadi. Talabalar uyida istiqomat qiluvchi talabalarning dam olishi, o'z ustida mustaqil ishlashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Jumladan talabalar uyida o'z tarkibida qiroatxona ma'naviyat va ma'rifat xonasi, hamda "Nafis" radio studiyalarini jamlagan ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Talabalarning o'qishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida radio studiyada turli dam olish zshittirishlari, qiroatxonada kitobxonlik kechalari, ma'naviyat va ma'rifat xonasida uchrashuvlar, davra suhbatlari muntazam o'tkazilib kelinmoqda. Shuningdek, talabalar uyida o'nga yaqin to'garaklar ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Talabalar uyida istiqomat qiluvchi talabalar uchun mukammal madaniy-maishiy sharoit yaratib berildi. Xususiyl xonadonlar va ijarada yashovchi talabalar xolidan xabar olinib, ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar yil davomida moddiy rag'batlantirilib borilgan.

"Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati SamDU boshlang'ich tashkiloti ham talabalrni ma'naviy shakillantirishda, talaba-yoshlar qalbi va ongiga "Biz hech kimdan kam bo'lmaganmiz, hech kimdan kam bo'lmaymiz" degan muqaddas tuyg'uni, o'zbek xalqining farzandi ekanidan iftixor tuyg'uni, o'stirish, ushbu maqsadga erishish yo'lida yoshlarga xos soflik va jo'shqonlik, g'ayrat-shijoat, milliy g'urur tyg'ularini ular ongiga singdirishda ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda.

Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizmni barcha ko'rinishlariga, ma'naviyat va ma'naviyatimizga nisbatan qilinayotgan mafkuraviy xurujlarga, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligiga rahna soluvchi, yoshlarni imon-e'tiqodi va ishonchini chalg'ituvchi, ongini zaharlovchi, to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi har qanday g'oya va mafkuralarga qarshi talaba-yoshlarni murossasiz kurashga undamoqda. Bu yo'nalishda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati SamDU boshlang'ich tashkiloti fakultetlardagi boshlang'ich tashkilotlar uchrashuvlar, davra suhbatlari, yig'ilishlar va boshqa ko'plab amaliy tadbirlarni amalga oshirmoqda. 2011 yil oktyabr oyida "Ogohlikni men qanday his etaman?", "Diniy oqimlar va sektalarning maqsad-

mudaolari” mavzularida mutaxassislar bilan ochiq muloqot oʻtkazildi. Millatlararo totuvlik va diniy bagʻri kenglik fuqarolar hamjihatligining asosi mavzusida davra suhbatlari tashkil etildi.

Talabalarni milliy istiqlol gʻoyalariga cheksiz sadoqat, ona Vatanga muhabbat mamlakatimiz milliy manfaatlarini muxofaza etishga qaratilgan eʼtiqod, jasurlik va fidoyilik ruhida tarbiyalashga moʻljallangan maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlarni uzoq muddatli rejasi ishlab chiqilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Yuksak maʼnaviyat yengilmas kuch” asari hamda milliy gʻoyaning “Yurt tinchligi”, “Vatan ravnaqi”, “Xalq farovonligi ijtimoiy hamkorlik.”, “Millatlararo totuvlik”, “Dinlararo bagʻrikenglik”, “Komil inson” tamoyillarini talabalar oʻrtasida targʻib qilish maqsadida yil davomida turkum davra suhbatlari oʻtkazilib kelinmoqda. Davra suhbatlari davomida talabalar ongiga milliy istiqlol gʻoyasini mazmun-mohiyatini sindiriladi, tushuntirish va targʻibot ishlari olib boriladi.

Mustaqilligimizni 20 yilligi hamda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining 10 yilligi munosabati bilan 10/20 loyihasi barcha taʼlim muassasalarida oʻtkazildi. Loyiha doirasida talabalarga 20 yil ichida mamlakatimizda erishilgan yutuqlar, mamlakatimizni yanada rivojlantirish uchun har bir talabaning bugungi kunda qoʻshadigan hissasi, talabalarni oʻz mutaxassisligi boʻyicha yetuk kadrlar boʻlib yetishitirishga qaratilgan davra suhbatlari hamda “Kamolot” Yoshlar ijtimoiy harakatining 10 yillik yubileyi munosabati bilan har xil intellektual, interaktiv oʻyinlar oʻtkazildi.

Davra suhbatlarida mustaqilligimizni yanada mustahkamlash va uni mazmun mohiyatini targʻib etish, yoshlar ongiga vatanparvarlik, oliyjanoblik kabi insoniylik tuygʻularini singdirish va bu boradagi tashfiqot ishlari olib borish kerakligi taʼkidlandi.

2010 yilda Samarqand shahrida “Biz yoshlar sogʻlom turmush tarzi tarafdorimiz” shiori ostida Respublika yoshlar festivali boʻlib oʻtdi. Festival doirasida yoshlar oʻrtasida yugurish morofoni, mustaqillik koʻchasida milliy oʻyinlar, rasm tanlovi, yoshlar aksiyasi, va “Bahs” koʻrsatuvini maxsus soni,

Samarqand konsert zalida festivalning gala konserti o'tkazildi. Bunday festivallarning o'tkazilishi talaba yoshlarni o'zaro fikr, tajriba almashish, yoshlar o'rtasida sog'lom ijtimoiy muhitni yaratilishi, bugungi kunning dolzarb masalalarida bahs-munozaralar o'tkazish, mamlakatimiz qisqa muddatda qo'lga kiritgan ulkan yutuqlar va uni ahamiyati haqida mulohazalar yuritish, o'z imkoniyatlari bilan o'rtoqlashish imkoniyat beradi.

“Kamolot” Yoshlar ijtimoiy harakati Samarqand viloyati Kengashi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yilligi munosabati bilan 2011 yil 17-19-noyabr kunlari Viloyatda “Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan!” shiori ostida talaba yoshlar festivali bo'lib o'tdi. Festevalda barcha ta'lim muassasalari, oliygohlar talabalari faol ishtirok etdilar.

Bu festivaldan ko'zlangan asosiy maqsad talaba-yoshlar o'rtasida siyosiy va huquqiy savodxonlikni oshirish, ularni sog'lom turmush tarzi talabalari asosida tarbiyalash. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi yo'lida oliy muqsadlariga erishishda yoshlarni iste'dod va qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash, davra suhbatlari, seminar-treniglar, ijodiy uchrashuvlar, tanlovlar, konsert dasturlari, sport o'yinlari, madaniy tadbirlar orqali talabalar o'rtasida do'stlikni yanada mustahkamlash, ertangi kunga bo'lgan ishonchini kuchaytirish, o'zining imkoniyati va kuchiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash katta rol o'ynaydi.

Tadbirda Prezidentimiz I.Karimovning “O'zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida” kitobini o'rganish va keng targ'ib qilishga bag'ishlangan yig'ilish, “Xalqaro talabalar kuni”ga bag'ishlab “20 yil: orzular ushalgan davr” mavzusidagi talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasi, “Ommaviy tadbirlar va yoshlar ma'naviyati”, “Vatan-maning g'ururim!” mavzularida uchrashuvlar, “Siz sevgan qahramonlar”, “Hyech kim mehr va e'tibordan chetga qolmasin”, “Biz sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz!”, “Yoshlar yetakchisi va yoshlar” uchrashuv, “Deputatlar va yoshlar” mavzulariga davra suhbatlari, “Yurtim jamolini madh etaman” mavzusida yoshlar o'rtasida foto va rasmlar tanlovi kabi o'tkazilgan tadbirlarda 20 mingga yaqin yoshlar ishtirok etgan.

O'tkazilgan festival doirasida "Ommaviy tadbirlar va yoshlar ma'naviyati" mavzusida barcha oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar ishtirokida tadbirlar o'tkazildi.

III BOB. Talaba - yoshlarni ma'naviy shakillantirish bo'yicha oila, mahalla va oliy o'quv yurtlari hamkorligi va tajriba- sinov natijalari

3.1. Talaba - yoshlarni ma'naviy shakillantirishda OO'Yu, oila va mahalla hamkorligi

Davlatimiz mustaqilligining mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy tarbiya va boshqa sohalardagi islohotlarining taqdiri, yurtimizning buyuk kelajagini barpo etish fuqarolarning, ayniqsa yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasiga, yuksak ongiligi, ijtimoiy faolligiga bevosita bog'liq. Shu bois mamlakatimiz mustaqillikining dastlabki kunlaridan boshlab ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalariga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Zero, ta'dim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlardan asosiy maqsad quyidagilardir:

Birinchidan, ijtimoiy siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishga umuman mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o'zgartirishga;

Ikkinchidan, inson hayotda o'z o'rnini topishini tezlashtirishga;

Uchinchidan, jamiyatga mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakillantirishga;

To'rtinchidan, insondagi mavjud salohiyatni to'la ro'yobga chiqarishga;

Beshinchidan, ongli, tafakkuri ozod, zamonvay dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Yoshlar ongini zaharlashga qaratilgan turli tahdidlar, ma'naviy xurujlar avj olgan bugungi murakkab sharoitda xushyorlik va ehtiyotkorlik zarurligini barchamiz angladik va his etib turibmiz. Chunki "ommaviy madaniyat" niqobi ostida yoshlar qalbiga chuqurroq kirib ularning ma'naviyatini zaharlashga o'rinayotgan "kuch"lar har birimizni tashvishga solmoqda. Muxtaram yurtboshimiz I.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida, "Tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzqlik va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, ushning hisobidan

boylik ortirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi" [3,117].

Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xaf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli bolo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda" deb ta'kidlab o'tadi.

Shu boisdan ham yoshlar o'rtasida ma'rifiy targ'ibot tadbirlari tashkil etilib, ularni yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishini oldini olish choralarini ko'rish bugungi dolzarb vazifadir.

Jamiyat hayotida tarbiyaviy ish hamisha dolzarb bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Shu bois XX asrning jonkuyar pedagogi Abdulla Avloniy "Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir"- deb ta'kidlaganligi bugun o'z tasidig'ini topmoqda. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya ishini davlat darajasidagi ustuvor vazifaga aylantirilishi ham jamiyatimizda yoshlarni ma'naviy barkamol, kuchli, bilim va yuksak taffakurga ega bo'lgan kadrlar qilib tarbiyalashda qanchalik muhim ish ekanligining isbotidir. Yosh avlodni ma'naviy tarbiyasida oila va mahallaning o'rni beqiyos ekanligi, ular o'rtasida o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish va takomillashtirish zarurligi oydinlashmoqda.

Yosh avlodni tarbiyalashda oilaning vazifalari:

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama ibratli bo'lishi, farzandlarning ota-onaga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'r bo'lishni ta'minlash:
- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarini o'z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash:

- farzandlarga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ularni ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar qilib yetishtirish:
- bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish:
- bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqlol g'oyalari va milliy tafakkurga sadoqat ruhida tarbiyalash:
- bolalarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib mazmunli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim berish:
- farzandlarida mavjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarini yaratish:
- o'z farzandarimizning OO'Yu, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatli bo'lish:
- ota-onalar o'zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borish:
- bolalarda tejamkorlik va mshbmlarmonliklarning ma'naviy axloqiy tomonlarini shakillantirish:

Yoshlarni tarbiyalashda mahallaning vazifalari:

- mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashishi va oqilona yechimlarini topishda faollik ko'rsatish:
- ma'nan nosog'lom oilalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga nisbatan jamoatchilik choralari ko'rish:
- mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishni qo'llab-quvatlash:
- ota-onalar orqali talabarga tashabuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy odob, baynalmilallik kabi xislatlarini singdirishni har tomonlama rag'batlantirish:
- yoshlarni diniy mazhablar va sektalar, aqidaparastlikning mohiyatini to'g'ri anglab yetishiga ota-onalar orqali ta'sir ko'rsatish, ulug' ajdodlarimizning tarbiyaviy o'gitlarini singdirib borishga jamoatchilikni safarbar qilish:

- turli jamg'armalar, xotin-qizlar qo'mitalari, turli jamiyatlar birlashmalar va ijodiy uyushmalarning yoshlarni milliy istiqlol g'oyalari asosida tarbiyalash ishiga, muamoli masalalarning yechimini topishga faol jalb qilish:
- mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarning imkoniyatlarini o'quv-tarbiya muassasalari moddiy-texnik negizini mustahkamlashga jalb qilishga ko'maklashish:
- mahalla hududida o'quv-tarbiya muassasalari bilan birgalikda turli ko'rik-tanlovlar, sport musobaqalari, anjumanlar, bayram va bellashuvlar tashkil qilish, turli yo'nalishlarda iqtidori bo'lgan yoshlarni ijtimoiy va moddiy jihatdan qo'llab-quvatlash:
- ta'lim va tarbiya berishda ijobiy natijalarga erishayotgan namunali oilalar hayoti tajribasini ommalashtirib, mahalla hududida "oila saboqlari" mashg'ulotlarini tashkil qilish:
- mahallada istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san'atkorlar, ziyolilar va barcha ijod ahlining imkoniyatlaridan foydalanib turli to'garak va klublar faoliyatini tashkil qilish:
- yoshlarda O'zbekistonga, uning tabiatiga muhabbat, tarixiga qiziqish, milliy urf-odatlarimizni asrab-avaylash, mamlakatimiz rivojiga o'z hissasini qo'shish, mahalla obodonligi, aholi uchun javobgarlik hissini shakllantirish:
- huquqiy, ma'naviy, ma'rifiy, tarbiyaviy, ijtimoiy tushunchalar berish uchun OO'Yu bilan hamkorlikda turli tadbirlarni amalga oshirish:
- turar joylarda, mahallalarda olib borilayotgan barcha tarbiyaviy, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlari markazi mahalla bo'lishiga erishish .

Yuqorida ko'rsatilganidek, mahalla azaliy udumlar, urf-odatlar va an'analarga tayangan holda ulkan ma'naviy tarbiya vazifasini bajaradi. Keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi orqali odamlar ongiga ezgulik g'oyalari singdirilib boriladi.

Mahallada kuchli ta'sir kuchiga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining, ularning xulq-atvorini, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi.

Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida g'oyaviy-mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, har bir kishi qalbida milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, hamjihatlik, insoniylik, el-yurt sha'ni uchun kurash, o'zaro yordam kabi fazilatlarini tarkib topishida mahallaning o'rni beqiyos.

Yoshlarimizni ma'naviy yetuk bo'lib yetishishida oila va mahalla birday mas'ul. Buning uchun birinchi navbatda ota-ona, mahalla har jabhada yoshlarga ibrat, o'rnak bo'lishi lozim. Yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda oila va mahalla o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatsa, bu ikki tarbiya maskani tarbiya ishida katta samaradorlikka erishishi mumkin.

Oilada yoshlar tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishda mahalalarning o'rni kattadir. Chunki mahalla kishilarni birlashtiradigan, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jamoa vazifasini bajarib kelgan.

Har bir oila biron-bir tadbir o'tkazmoqchi bo'lsa, avvalo mahalla bilan maslahatlashishga, turli xil muammolarni shu yerda hal qilishga harakat qilganlar. Shuning uchun ham milliy qadriyat hisoblanadiyu yillar davomida mahalalarda yangi yangi ma'naviy, ilmiy qadriyatlar vujudga kelgan, shakllangan va rivojlangan, xalqimizning turmush tarziga singib borgan.

Keyingi vaqtlarda Respublikamiz mahallalarida madaniy va ma'rifiy ishlarni keng yo'lga qo'yish bo'yicha, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni amalga oshirishga katta e'tibor berilmoqda.

Joriy yilda Respublikamiz miqyosida mahalalar tomonidan o'n to'qqiz mingdan ziyod ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilgan. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida 1192ta, Andijon viloyatida 7340ta, Buxoro viloyati 279ta, Jizzax viloyatida 239ta, Navoiy viloyatida 249ta, Namangon viloyatida 861ta, Toshkent viloyatida 2349ta, Samarqand viloyatida 3686ta ijtimoiy va ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan turli uchrashuvlar,

tadbirlar o'tkazilib bu tadbirlarga yoshlar keng qamrovli jalb etildi. O'tkazilgan tadbirlar ta'sirchanligini oshirish, maqsadida turli videoroliklar, jonli tasviriy vositalar, televideniya va matbuotdan keng foydalanganligi ayni muddao bo'ldi.

Hozirgi vaqtda Samarqand viloyatida 1094ta mahalla mavjud. Mahallalarning barchasida "Yoshlar bilan ishlash komissiyasi" vakillari va faollar hamkorlikda ish reja va chora - tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan. Ushbu dastur asosida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Mahallalarda amalga oshirilgan ma'naviy tadbirlarga va uchrashuvlarga 2011-2012 yillar davomida 490 mingdan ziyod aholi jalb etilgan. Bularning ko'pchiligini mahalla yoshlari jumladan, maktab o'quvchilari, kollej va lisey, oliy o'quv yurtlari talabalri tashkil etdi.

Samarqand viloyatining mahallalarida 2012-yilning I choragi davomida amalga oshirilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar Samarqand shahrida 914tani, Kattaqo'rg'on shahrida 198tani, Bulung'ur tumanida 263tani va h.k tashkil etib, ularda "Mustahkam oila-jamiyat tayanchi", "Oila tinch-yurt tinch", "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", "Ma'naviyat insonni ulg'ayishi va kuch-qudrat manbai", "Ma'naviyatga tahdid-o'zligimiz va kelajagimizga tahdid" , "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz taraqqiyoti poydevori", "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jamiyat barqarorligi kafolati", "Kichik biznes vva xususiy tadbirkorlik yili: mazmun va mohiyat", "Oila-el yurt tayanchi", "Yoshlar va sog'lom turmush tarzi", "Diniy ekstremizmga qarshi yuksak ma'naviyatimizni qurol qilaylik", "O'zbekiston yoshlari mutasiflik xavfi tarafdori emas", "Biz missionerlikka qarshimiz", "Men ekstremizmni qanday tushunaman", "Ajdodlarga munosib avlod bo'laylik", "O'zbekiston - biz sening sodiq farzandimiz", "Ajdodlar merosi-milliy tarbiya asosi", "Dinlararo bag'rikenglik", "Milliy armiyamiz-mustahkamligimizning tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolati", "Mardlar qo'riqlaydi Vatanni", "Xushyorlik va sergaklik- zamon talabi", "Urfodatlarimiz va qadriyatlarimiz", "Mirzo Ulug'bek", "Odam savdosi- qullik balosi", "Giyohvandlik illat", "Terorizm-taraqqiyot dushmani", "Amir Temur jahon nigohida", "Mirzo Ulug'bek jahon ilm-faniga qo'shgan hissasi", "Alisher Navoiy ma'naviyati", "2012 yil mustahkam oila yili", "Buyuk va muqaddassan mustaqil

Vatan”, “Zahridin Muhammad Bobur-buyuk shoir va davlat arbobi”, “Vatanni sevmuq-iymondandur”, “Vatan va millat muqaddasdir”, “XXI asr yoshlari:milliy ma’naviyat va odob-axloq muammolari”, “Ommaviy madaniyat milliylikimizga tahdid”, “O’zbekiston 20 yoshda”, “O’zbekiston yagona Vatan” va boshqa mavzularda turli tadbirlar o’tkazidib kelinmoqda. Bu tadbirlarda talaba yoshlar orasida yurtimiz tarixiy ulug’ ajdodlarimizning boy meoni, milliy ma’naviyatimiz, urf-odatlarimiz, an’analarimiz, respublikamizda amalga oshirilayotgan bugungi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, diniy ekstrimizm va terrorizmga qarshi kurashishni targ’ib qilish maqsadida olimlar, yozuvchilar, jamoat arboblari, professor-o’qituvchilar, ziyolilar, matbuot xodimlari, jurnalistlar keng jalb etilgan. Ishtirokchilar mustaqillikning ma’naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarimizni ko’z qorachig’idek asrab-avaylash, yoshlarimizni yot mafkuraviy xurujlardan ximoya qilish, Vatan uning bugungi va ertasi uchun dahldor, ma’sullik tuyg’usini kuchaytirish borasidagi ishlarga e’tibor qaratishmoqda. Chunki, xalqaro maydonda mafkuraviy, g’oyaviy kurashlar va globalashuv, axborot xurujlaridan himoyalalanish, avvalo aholining shuningdek yoshlarimizning ijtimoiy-siyosiy savodxonligi, faolligini oshirish, mamalakatimizda amalga oshirilayotgan o’zgarishlarga nisbatan daxldorlik xislatini uyg’otish, milliy qadriyatlarimiz va an’analarimizga asoslangan siyosiy mafkuraviy, ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini shakillantirishini taqozo etadi. Shulardan kelib chiqib, ta’kidlamuq zarurki, yoshlar qalbiga chuqur kirib boradigan, ularni kayfiyati va ruhiyatini ko’taradigan, ezgu maqsadlarga chorlaydigan zamonaviy targ’ibot usullaridan keng va samarali foydalanmuq zarur.

Shuningdek, diniy ma’rifat va ma’naviy axloqiy tarbiya masalalari bo’yicha maslahatchilarning oilalar bilan ishlashni takomillashtirish maqsadida seminarlar, davra suhbatlari keng yo’lga qo’yilgan. Turli diniy oqimlar ta’siriga tushib qolgan yoshlarni aniqlash va ularni bu yo’ldan qaytarish maqsadida mahalla oliy o’quv yurtlari, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, “Ma’naviyat targ’ibot” markazi, bilan izchil hamkorlikdagi sa’y-harakatlar o’zining ijobiy samaralarini bermoqda.

Samarqand viloyatidagi barcha mahallalarda diniy ma'rifat va ma'naviy axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar faoliyat olib bormoqda. Bulardan tashqari, har bir mahalla fuqarolar yig'ini qoshida oila madaniyatini shakillantirish, yoshlar tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'ish, turli zararli illatlar, oqimlar ta'sirini oldini olish qaratilgan say'i-harakatlari bilan giyohvandlikning, OITSGa chalinishning oldini olish bo'yicha ijobiy natijalarga erishilmoqda. Targ'ibot-tashviqotlar, o'tkazilayotgan davra suhbatlar, tadbirlar natijasida viloyat bo'yicha giyohvandlik va boshqa salbiy illatlarga chalingan yoshlar soni ancha kamaygan.

Shu yil 21-23 fevral kunlari Samarqand viloyatidagi barcha mahallalarda "Respublikada ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullanish samaradorligini oshirishda mahallaning diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatlarining vazifalari" mavzusida hududiy o'quv-seminarlar tashkil etildi. O'ylaymizki, bunday tadbirlar o'zining ijobiy samaralarini beradi, albatta.

Har bir oilada sog'lom turmush tarzi shakillanishiga erishilsa, bu shubhasiz mahallaning yutug'idir.

Mahalla faollari yoshlarning odob-axloqini, yurish-turishini doimo nazorat qilib turishsa, o'sha maskanda tinchlik va soyishtalikning beqarorligi ta'minlanadi. Yoshlar tarbiyasida eng muhim bo'lgan jihatlar bizningcha, ularda Vatanga muhabbat tuyg'usini shakillantirishdir. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy, g'oyaviy va mafkuraviy tarbiya asosida tashkil topadi. Bu borada Samarqand shahridagi "Mir Said Baraka" nomidagi mahallada bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Talaba-yoshlarning ma'naviy ongini yuksaltirish maqsadida bir qator ishlar qilinmoqda. Avvalo har bir oilaning moddiy va ma'naviy ahvoli o'rganilmoqda. Kam ta'minlangan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj oilalarning ro'yxati tuzilib, ularning birortasi e'tibordan chetda qolmaslikka harakat qilinmoqda.

Mahalladagi qobiliyatli, iste'dodli yoshlarni aniqlash maqsadida turli ko'rik-tanlovlar olib borilmoqda. Bu tanlov va tadbirlarda san'at, sport, fan va boshqa

sohalarda o'z iqtidorini namoyon qilgan yoshlar rag'batlantirilib, zarur imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Buning uchun mahallaning o'z faxriy yorlig'i ta'sis etilgan. 14-yanvar- Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirda mahalladagi yoshlar, talabalar faol ishtirok etishdi. Ularning 20 nafariga "Faxriy yorliq" va estalik sovg'alar topshirildi. Ular bu tadbirda o'zlarining ona-Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatini chizgan suratlar, yozgan she'rlar, insholar va teatrlashtirilgan sahnalari bilan ishtirok etdi.

Bundan tashqari Navro'z, Mustaqillik bayramlarida ham har xil ko'rik-tanlovlar, sport musobaqalari o'tkazib boriladi, jamoat ishida faol, o'quv yurtida o'zining intizomli va o'qishi bilan ajralib turgan talabalarning Toshkent shahriga sayyohati uyushtirildi. Yoshlar Oliy Majlis Senatida bo'lib, senatlar bilan suhbatlashgani ularda katta tassurot qoldirgan. Shuningdek, ular "Ma'naviyat va ma'rifat" markazida, kutubxonalarda, muzeylarda, teatrlarga borib, ularning faoliyati bilan batafsil tinishgan. Yoshlarni tafakkurini boyitish, dunyo voqialaridan doimo xabardor bo'lib turishi uchun 9ta oilaga kompyuter jamlanmasi, 6ta oilaga rangli televizorlar ko'pchilik oilalarga kitoblar sovg'a qilinishi yoshlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning bir ko'rinishidir. Bu ezgu ishlarning samarasi o'laroq, mahallada 7 yildan buyon biror bir noxush holat sodir bo'lgani yo'q. Bunday natijaga erishishda mahallada ma'naviy targ'ibot ishlarini yaxshi yo'lga qo'yilganligi asosiy omillardan biridir.

Ota-onasiga, xalqiga, Vataniga mehr-muhabbatli kishi komil va ma'rifatli insondir. Xalqimizning ma'naviy merosini o'rganishda, ajdodlarning ibratli ishlaridan o'rnak olishda Maxmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy asarlari bu mahalla uchun beqiyos xazina hisoblanadi. Shu bois, mahallada o'tkaziladigan har qanday tadbirda ularning o'gitlaridan, asarlaridan keng foydalanilmoqda.

Mahalla va oila hamkorligi doirasida Samarqand viloyati va shahri mahallalarida birgina 2012 yilning 3 oyi davomida 5423ta ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. jumladan, mahallalarda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish, yoshlarda

Vatanparvarlik, burchga sadoqat, xushyorlik va ogohlik tuyg'ularini mustahkamlash va ularni Qurolli Kuchlar safiga tayyorlash maqsadida 4 yanvardan 15 yanvarga "Mardlar qo'riqlaydi Vatanni", "Yigitlar Vatanning faxri va ko'rki" mavzusida viloyatning 1094ta mahallalarning barchasida davra suhbatlari, uchrashuvlar va tadbirlar o'tkazildi. Samarqand viloyati va shaharlardagi "A.Navoiy", "Bahor", "Tong", "Mir Said Baraka", "A.Qahhor" mahallalarida bu tadbirlar uyushqoqlik bilan olib borildi va 300 mingdan ortiq yoshlar faol ishtirok etishdi.

8-mart "Xalqaro xotin-qizlar kuni", "Navro'z" bayrami munosabati bilan "Jannat onalar oyog'i ostidadir", "Ayol-oila charog'boni", "Navro'z-yasharish va yashnash bayrami", "Navro'z-iymon-e'tiqod va mehr bayrami", "Assalom Navro'zi olam" mavzularida suhbatlar, uchrashuvlar va bayram tadbirlari uyushtirildi va bu tadbirlarda 400 mingdan ziyod aholi ishtirok etib, shundan 289ming nafarini yoshlar tashkil etdi.

Mahallalarda yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish maqsadida "Usto-shogird" yo'ngalishi bo'yicha kam ta'minlangan oilalarda tarbiyalanayotgan yoshlarni kasbga o'rgatish maqsadida joriy yilning 3 oyi mobaynida 260 nafar yigit-qizlar hunar o'rganishga yo'naltirildi. Kasb-hunarga yo'naltirilgan yigit-qizlarning barchasi hunar o'rganish kurslarini tugalladi.

Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan o'tkazilgan umumxalq xayriya hasharida har bir mahalladagi yoshlar ishtirokida mahalla va ko'chalarga ko'chat o'tkazish, bog'-rog'lar va gulzorlar yaratish ishlari amalga oshirildi.

Viloyatning barcha mahallalarida Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi viloyat bo'limi, "Kamolot" YoIH viloyat Kengashi, "Mahalla" jamg'armasi viloyat bo'limi, "Nuroni" jamg'armasi viloyat bo'limi hamkorlikda 2012 yil 1-chorak davomida "Diniy ekstremizm va aqidaparastlikning jamiyat taraqqiyotidagi zarari", "Farzandlarga ta'lim-tarbiya berishda ijobiy natijalarga erishayotgan, namunali oilalar hayoti tajribasini ommalashtirish", "Milliy istiqlol g'oyalarini yoshlar ongiga singdirish" mavzularida 3000 mingga yaqin turli xil tadbirlar, davra suhbatlari va muloqotlar o'tkazildi. Unda 290mingga yaqin yoshlarning ishtiroki

ta'millandi. Yoshlarni turli xil oqimlar ta'siriga tushib qolishini oldini olishga qaratilgan ma'naviy-m'rifiy seminar, davra suhbatlari oyda ikki arta muntazam o'tkazilib borilmoqda.

Mahallaning bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biri mahalladagi oilalarni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasini hamkorlik asosida nazorat qilib borishdir. Yoshlar tarbiyasida biron bir ijobiy samaraga erishish uchun, avvalo hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim. Bu burada Samarqand shahri mahallalarida ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Shahardagi "Bahor", "Tong", "Mirzo Ulug'bek", "So'zangaron", "G'afur G'ulom", "Abdulla Qahhor", "Mir Said Baraka" kabi mahallalarda (ommaviy) yoshlar tarbiyasida maqtovg'a loyiq tarbiyaviy-ma'rifiy ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin. Bu mahallalarda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning mazmun mohiyatiga ko'ra yoshlarni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalash va uni singdirish, yoshlar, talabalar o'rtasida tashviqot olib borish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Bu mahallalarning barchasida talaba-yoshlarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an'alariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslanib, talaba-yoshlarni shaxsini tarbiyalash bu kamol toptirish bo'yicha ma'naviyat xonalari tashkil etilgan.

Bu ma'naviyat xonalari bugungi davr talabiga javob bera oladigan jihozlar (burchaklar, plakatlar, stentlar) bilan ta'minlangan. Bularda yurtimiz erishgan barcha sohalar iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, ilm-fan, ijtimoiy hayot, sport sohaları, tariximiz, milliy an'alar, urf-odatlar, qadriyatlarimiz to'lalig'icha aks ettirib berilgan. Bu mahallalarning barchasi doimiy ravishda gazeta va jurnallarga obuna bo'lib keladi. Ma'naviyat xonalarida "Ma'rifat", "Xalq so'zi", "Huquq", "Turkistan", "Sog'lom avlod", "Oila va jamiyat", "Nuroni", "Jamiyat", "Vatanparvar", "Adolat sari", "O'zbekiston ovozi", "Ishonch", "Inson va qonun", "Zarafshon", "Samarqand", "Soliq va bojxona" gazetalarning barcha sonlari mavjud. Ma'naviyat xonalari doim mahalla ahli va talaba-yoshlar bilan gavjum bo'ladi. Ular gazetalarni muntazam ravishda o'qib boradi. Bu ham ularni ma'naviy tafakurrini boyishiga omil bo'lib xizmat qiladi. Samarqand shahar va

tumanlaridagi “Tong”, “Yangi ariq”, “Maroqand”, “Kaftarhona”, “Nurli kelajak” mahallalarida hafta kunlarida ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo’yicha yig’ilishlar va seminar o’tkaziladi. Yig’ilishga ota-onalar, mahalla faollari, mahalla yoshlari, talabalari, shuningdek, “Ma’naviyat targ’ibot” markazi xodimlari, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati faollari, o’rta va oliy ta’lim o’quv yurtlarining tajribasi professor o’qituvchilari taklif etiladi. Ishtirokchilar mahalladagi ma’naviy tarbiya borasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish va samaradorligini oshirish bo’yicha dastur ishlab chiqadilar. Chunki, hozirgi vaqtda ko’pgina yoshlarni ma’naviyati buzilayotganligi barchamizga ayon. Ular omma orasida o’zini tuta bilmaydilar. Andisha, iffat, hayosizlik, axloqsizlik qilib, bizning milliyligimizga to’g’ri kelmaydigan turli nomaqul ishlarni amalga oshirmoqda.

Ushbu dasturda yoshlarni to’g’ri, ma’naviy boy qilib tarbiyalashda oila, mahalla, qo’ni-qo’shnilar, ta’lim muassasalarini hamkorligi muhim tarbiyaiy ta’sir kuchiga ega ekanligi ko’rsatib o’tilgan.

Mahallalarda ma’naviy ma’rifiy muhitni saqlash va samaradorligini oshirishda mahalladagi oilalar bilan quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

- mahallada olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarni samaradorligiga erishish uchun ishchi guruhini tuzish va uni tarkibini belgilash;
- mahalladagi talabalarga, yoshlarga ma’naviy xizmat ko’rsatishni yaxshilash, ularni qulay-sharoitlar yaratib berish klublar, to’garaklar tashkil etish, sport inshootlari qurish va keng jalb etish;
- fanimiz madaniyatimizga ulkan hissa qo’shgan (Imom al-Buxoriy, Baxoviddin Naqshbandi, Zamag’shariy, Termiziy, farg’oniy al Xorazmiy va boshqalar)ning tavallud sanasini mahalla ahli bilan nishonlash;
- mustaqillik bayrami, Konstitutsiya kuni, O’qituvchilar va murabbiylar kuni, Xotin-qizlar bayrami, Vatan himoyachilari kuni, Navro’z bayrami, ramazon va Qurbon hayitlari bayramlarini keng nishonlash;
- mahallada yurtimiz tarixi, ulug’ ajdodlarimizni boy marosimi targ’ib qilish;
- mahalladagi talabalarga, yoshlarga Vatanparvarlik tuyg’ularini singdirish;

- yurtimizda amalga oshirilayotgan bugungi barcha sohalardagi islohotlarni mohiyatini ochib berish;
- mamlakatimizda ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar barcha teng huquqli ekanligini tushuntirish va targ'ibot ishlarini olib borish;
- milliy davlatchiligimizga ulkan hissa qo'shgan Jaloliddin manguberdi, Amir Temur, Muhammad Boburlar amalga oshirgan ishlari mavzularda suhbatlar o'tkazish;
- mahalla yoshlarida milliy g'urur, istiqloлга fidoyilik tuyg'ularini mustahkamlash;
- mahalla aholisi o'rtasida mustaqillik g'oyalarini, milliy istiqloл mafkurasini targ'ib qilish;
- mahalladagi istedodli yoshlarga kerakli imkoniyatlarni yaratib borish va boshqalar ko'rsatib o'tildi.

Samarqand shahri va tumanlaridagi mahallalarda yoshlarga sog'lom ma'naviy muhit yaratish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Mahalladagi ma'naviy ishlarni yanada jonlantirish va talaba yoshlarni ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyatini hisobga olib, quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchidan, milliy qadriyatlarimizdan sanalgan mahallada tarbiyaviy ishlar ko'lamini kengaytirish;

Ikkinchidan, mahalla ishini qayta ko'rish;

Uchinchidan, mustaqillik vazifasidan kelib chiqib mahalla dasturlarini ishlab chiqish;

To'rtinchidan, mahallada oila hamkorlini ta'minlash va kuchaytirish;

Beshinchidan, mahallada o'tkaziladigan urf-odatlar, an'analar, marosimlarda sharqona uslubni soqlab qolish;

Oltinchidan, mahalladagi mavjud oilalar-ruhiyatini, ijtimoiy sharoitini o'rganib chiqish;

Yettinchidan, mahalladagi yoshlar bilan tarbiyaviy tadbirlar ko'lamini kengaytirish, jumladan, oqsoqollar, e'tiborli kishilar yoshlar bilan iymon e'tiqod,

ota-ona hurmati, farzanddik burchi, Vatan qadri, mahalla obro'si haqida suhbatlar uyushtirish mahallada o'tkaziladigan barcha tadbirlar yoshlarning qatnashishi muhim ekanligi, Vatan mahalladan, oiladan boshlanishi, allomalar, mutaffakirlarning tarbiyaviy fikrlarini tushuntirish, hozirgi kun siyosati, talabi va unda yoshlarning o'rni haqida fikrlar almashish; yoshlarning orzu-istaklari, kelgusi rejaları haqida: yigitlik burchi, sha'ni, oiladagi boshliq sifatida o'rni haqida gapirib berish va boshqalar.

Sakkizinchi, ichkillik ko'p sodir bo'ladigan va notinch oilalarni aniqlab, ular bilan jamoat orqali yoki yakka tarzda tarbiyaviy suhbatlar uyushtirish;

To'qqizinchidan, yoshlarni bo'sh vaqtini foydali ishlarga yo'naltirish maqsadida tadbirlar tashkil etish;

O'ninchidan, ko'p bolali oilalar mahallaning diqqat markazida bo'lishi;

O'n birinchidan, mahalla yoshlari ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida oila va ta'lim muassasalari bilan yaqindan aloqa o'rnatish va boshqalarga e'tibor berilgan tadbirda ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Hozirgi kunda yoshlarning ma'naviy ehtiyojini qondirishda an'ana va yangi dasturlar ishlab chiqishni taqozo etadi. Chunki, mahallada, oilada olib boriladigan urf-odat, turli xil marosimlar o'z mohiyatiga ko'ra, ma'naviy madaniyat va turmush tarzining muhim elementlari sifatida har bir shaxsni ijtimoiy muhit bilan bog'lovchi vosita hisoblanadi. Eng muhimi, yangi urf-odatlar, ayniqsa yoshlarning o'zaro munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, dunyoni aslidek tushunish va idrok etishga, umuman, inson ma'naviy qiyofasini mukammalashuviga olib keladi.

Milliy an'anaga, urf-odatlar xalqimiz hayotining mazmuniga, kundalik turmush tarziga singib ketganligini ko'rish mumkin. Oilada tarkib topgan an'ana, urf-odatlar insonning axloqiy ruhda tarbiyalashning muhim vositasi bo'lib qolgan. Shu ma'noda yoshlarni ma'naviy-axloqiy estetik qarashlari, xulq atvori va hatti-xarakatlarini baholashda, ularni burch, vijdon, or-nomus, g'urur, Vatanparvarlik, insonparvarlik kabi tushunchalarga bo'lgan munosabatlarini hisobga olish zarur.

Hozirgi davrda mahalladagi oilalarning kamol topishi ko'p jihatdan yangi ijtimoiy sharoitga qay darajada mos kelishiga, ularning qanchalik yaxshi tashkil etilganligiga va kishilarning madaniy maishiy ehtiyojlari qay darajada qondirilayotganligiga bog'liqdir.

Oiladagi mahallalardagi moddiy va ma'naviy ehtiyojlar kishilarning o'zaro munosabatlarini mustahkamlaydi, shaxsning madaniy saviyasini ko'taradi. Ichki madaniyatning tarkibiy qismi hisoblangan milliy qadriyatlar, ya'ni an'ana, urf-odatlar inson hayotining asl mohiyatini tashkil etadi. Zero an'ana va urf-odatlarning yoshlar ruhiyatiga rag'batlantiruvchi ta'sir kuchini ota-onalar, mahalla doimo nazarda tutmoqlari darkor. Ayniqsa, oilaviy maishiy va ijtimoiy turmush urf-odatlari, ijtimoiy vazifalarini aniq tarixiy vosita nuqtai nazaridan mahliyo qilish, ularga mustaqillik sharoiti, milliylik va islomiylik nuqtai nazaridan yondoshish, birinchidan yoshlarni ma'naviy jihatlari tarbiyalash; ikkinchidan oilani negizini mustahkamlaydi; uchinchidan, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabat mutlaq ijobiy tomonga o'zgaradi. Bu esa, o'z navbatida, oila a'zolarining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga olib keladi.

Ota-bobolarimizdan meros qolgan chiroyli va ramziy ma'noga ega bo'lgan urf-odatlarni bilish, bevosita ularda ishtirok etish va aynan ana shu urf-odatlarning o'tkazish tartibini, qonun-qoidalarini bilish yoshlarni ma'naviy shakillanishida muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Mana shunday malaka va ko'nikamalarni yoshlardan tarkib toptirish vazifasi avvalo, oilaga, mahalla jamoasiga yuklatiladi.

Ma'lumki, bugungi kunda yoshlar tarbiyasida oila va mahalla hamkorligi o'rni tobora ortmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida oilaning jamiyat, davlat oldida ma'suliyatini anglab yetadigan komil insonlar tarbiyalashdagi o'rniga alohida e'tibor qaratilgan.

Tarbiya o'ta murakkab va serqirra jarayon bo'lib, yoshlar tarbiyasi, ularning ijtimoiy hayot jarayonidagi o'rni bugungi kunda sezilarli darajada ortib bormoqda.

Oilada singdirib boriladigan odob-axloq qoidalari ijtimoiy foydali mehnat, ta'lim olish, bo'sh vaqtlarida tur xil to'garaklarga qatnashish yoshlarning kelgusi

hayotlarida ijtimoiy huquqiy munosabatlarning faol subyektlariga aylanishlari muhim ahamiyatga ega. Yoshlarda ma'naviy shakllantirish esa eng muhim va murakkab vazifalardan biridir.

Yoshlar tarbiyasini yo'lga qo'yish avvalo oiladan boshlanadi. Ayniqsa, o'zbekona oila sharoitida shakllangan mehr-oqibat, ota-onaga hurmat, ular oldidagi burchlarga sadoqat bilan yondoshish, ona-Vatanga bo'lgan muhabbat kabi insoniy fazilatlar oilada shakllanadi. Prezidentimiz I.A.Karimov "Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun avvalo har qaysi xonadondagi ma'naviy iqlimni o'zaro-hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosida qurish ayni mudao bo'lur edi" deb takidlan edi [3,55]. Oilada ota-ona o'z farzandlariga o'zlarining kasb-koriga sadoqat, yashab turgan zaminiga mehr-muhabat, xulq-atvori, bir-biriga bo'lgan o'zaro hurmati, jamiyat va davlat oldidagi burchlarini qanchalik ado etishlari bilan farzandlariga ibrat maktabi bo'lishligini unutmaslik lozim. Oilada yoshlarni ma'naviy shakllantirishda barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda ota-ona har tomonlama bilimdon, ustoz, ma'naviy, siyosiy va huquqiy bilimlarga ega bo'lishi lozim. Chunki, oilada bola ma'naviy olamini yaratadi, yaxshilik va yomonlik haqidagi eng sodda tushunchalarni shakllantiradi, atrofida sodir bo'ladigan voqeya-hodisalarga ijobiy yoki salbiy fikrlarini bildirib boshlaydi. Ayni paytda ota-ona o'zining bilimdonligi bilan to'g'ri va aniq yo'l ko'rsatishi, ijobiy fikrlashni to'g'ri yo'lga qo'yish, yaxshi yomonga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishlarini faqat va faqat tarbiya orqali amalga oshiradilar.

O'zaro hamkorlikka asoslangan tarbiya aniq ishlab chiqilgan yillik va istiqbolli rejaga asoslanilsa, o'zaro hamkorlik rishatali yanada mustahkam va maqsadli bo'ladi.

Mahallalarda yoshlarni tarbiyalashda ota-bobolarimiz uslubini qo'llash, tarixiy marosimimizga va milliy tarbiyamizga asoslanishimiz lozim. Ta'lim tarbiya sohasidagi eng muhimi umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlar ustivorligidir. Bu esa yoshlarga bosh tarixiy, milliy madaniy meros, ming yillar davomida shakllangan milliy tarbiyamiz ana'analari asosida tarbiya berishdir.

Darhaqiqat, mahalla bugungi kunda to'laqonli tarbiya institutiga aylanib bormoqda. Chunki har qaysi inson oilada tug'iladi, keyinchalik mahallada ulg'ayadi.

Talabalar yoshlar mahallada kamol topar ekan, bugun ana shu mahallaning orasida yetishib chiqqan mashhur kishilar, ustoz-murabbiylar, harbiylar, xalq qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan hurmatli kishilar, mashhur sportchilarning ibratli hayot yo'llarini o'zlariga namuna qilib olishlari kerak.

Bugun oila va mahalla hamkorligida yoshlar tarbiyasini yo'lga qo'yishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- beqiyos milliy institut bo'lgan mahallaga ibrat maktabi sifatida qarash va uning faolligini oshirishda yoshlarni muntazam ravishda jalb etish;
- oila va mahallaning ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy hamkorlik aloqalarini jonlantirish;
- talabalarni, mahalla yoshlarini mahallada bo'ladigan tarbiyaviy tadbirlarga faol qatnashishini qat'iy ta'minlash;
- talabalar va yoshlarni bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishda mahallada obodonchilik ishlariga faol jalb etish;
- faol talaba yoshlarni nafaqat ta'lim muassasalarida, balki mahallalarda ham rag'batlantirish chora-tadbirlarini belgilash;
- mahallalarda ibratli oilalar tajribasini o'rganish va ommalashtirish;
- mahalla yoshlari o'rtasida hayotiy qiyinchiliklar va ruhiy tushkunliklarga uchragan va turli noxush xatolarga duch kelganlarga yordam beradigan maxsus ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'limlarini tashkil etish;
- oila va yoshlarning ijtimoiy muammolarini o'rganish hamda monitoring tizimi, metodikasini ishlab chiqish va b.q.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, dunyoning biror bir davlatida mahalla institutiga bo'lgan e'tibor bizning mamlakatimizdagidek emas. Shunga ko'ra, tarbiyada o'zaro hamkorlik va unga xos tajribalarni o'rganish hamda ommalashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

3.2. Pedagogik tajriba – sinov va natijalari

Pedagogik tadqiqot ishlarini amaliyotga tadbiq etish va ularning samaradorligini aniqlash tajriba sinov ishlari olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini sinovdan o'tkazish va ularni natijalarini tahlil qilish bo'yicha bir qator ilmiy ishlar o'rganildi va amaliyotga tadbiq etildi.

Ijtimoiy institutlar integrasiyasi orqali talabalarni ma'naviy shakllantirish tajriba sinov ishlarini o'tkazish obektlari sifatida Samarqand shahar Hazorbog' mahallasi, Urgut tuman Dehqonobod mahallasi, Samarqand Davlat Universiteti, O'zbekiston radiotelevizioniye kompaniyasi, Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi tanlab olindi.

Ushbu tajriba obyektlarida 2010-2011yy, 2011-2012yy o'quv yillarida pedagogik tajriba-sinov shlari olib borildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi ijtimoiy institutlarning hamkorligini kuchaytirish orqali talabalar ma'naviyatini yuksaltirish va ularni samaradorligini tajriba sinovdan o'tkazishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish va tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda kuzatish, anketa-so'rovlar, suhbatlar, nazorat (test), pedagogik tajriba usullaridan foydalanildi.

Pedagogik kuzatuv usulidan SamDUda tashkil etiladigan o'quv tarbiya ishlari jarayonini o'rganish, jumladan, umumkasbiy fanlarni o'rganish jarayonida ommaviy axborot vositalarida bayon qilingan materiallarni talabalar ma'naviyatiga ta'sir holatlarini o'rganish, umumlashtirishda va tajriba sinov ishlarini boshidagi va yakunidagi ko'rsatgichlar orasidagi farqlarni solishtirishda foydalanildi.

Anketa-so'rovlar, Suhbatlar-o'tkazish usulidan esa talabalarni mashg'ulotlar jarayonida ma'naviy bilim va ko'nikmalari darajasini aniqlash uchun foydalaniladi. Nazorat (test) usulidan talabalarning bilim saviyasini aniqlash maqsadida foydalaniladi.

Pedagogik tajriba usuli ijtimoiy institutlar faoliyatini integrasiyalash asosida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish, tanlab olingan maqsad uchun mavjud shart-sharoitlarning talabga javob berish darajasini aniqlash va mazkur soha bo'yicha ishlab chiqilgan ishlanmalarni amaliyotdagi samaradorligini aniqlash maqsadida qo'llanildi.

Talabalarni ma'naviy shakllanganlik darajasi quyidagi mezonlar asosida aniqlandi:

1. Talabalar tomonidan ma'naviyat tushunchasining lug'aviy ma'nosi va mantiqiy mohiyatining chuqur anglaganligi.
2. Talabalar ma'naviy ehtiyojning yuzaga kelganligi.
3. Talabalarda ma'naviy barkamollikni belgilab beruvchi fazilatlarining paydo bo'lishi.
4. Talabalarning ma'naviyat sohasida alohida faollik ko'rsata olishlari.

Shunga ko'ra talabalarning ma'naviy shakllanganlik darajasi yuqori, o'rta, past darajalarga ajratildi.

- 1) Yuqori daraja - barcha savol va topshiriqlarga ijobiy javob qaytarilganligi.
- 2) O'rta daraja - savol va topshiriqlarga qisman to'g'ri javob berganligi, ayrim savollarga javoblar va amaliy topshiriqlar qoniqarli emasligi talabalar harakatida sezilib tursada ayrim o'rinlarda chalkashlik, xatolar bo'lganini ko'rishish mumkin.
- 3) Past daraja - savol va topshiriqlarga javoblar 40%dan kamligi, amaliy topshiriqlarga javoblarning qoniqarsiz ekanligi.


Shu mezonlar asosida ular faoliyatini pedagogik kuzatish ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, talabalar ishtirokida suhbat, bahs-munozara, debat, tanlov va davra suhbatlari tashkil etilib, ushbu jarayonda ular tomonidan namoyish etilgan hatti-harakatlarning mohiyat tahlil qilindi, talabalar faoliyatining mohiyati va mazmuni o'rganildi. Umumiy tahlil natijalariga asoslanib talabalarning ma'naviyatini shakllanganlik darajasi quyidagi jadvalda o'z ifodasini topdi.

№	Mezonlar	№ = 160		
		yuqori	o'rta	Past
1	Ma'naviyat tushunchasining lug'aviy ma'nosi va mantiqiy mohiyatining chuqur anglanganligi	51	81	18
2	Ma'naviy barkamollikni belgilab beruvchi fazilatlarning namoyon bo'lishi	43	95	22
3	Ma'naviy barkamollikni belgilab beruvchi fazilatlarning namoyon bo'lishi	37	103	20
4	Ma'naviyat sohasida alohida faollik ko'rsata olishi	24	111	25

Xuddi shu tahlilda nazorat guruhiga ajratilgan respondent talabalarda ma'naviyatning shakllanganlik darajasi.

№	Mezonlar	№ = 161		
		yuqori	o'rta	Past
1	Ma'naviyat tushunchasining lug'aviy ma'nosi va mantiqiy mohiyatining chuqur anglanganligi	29	49	83
2	Ma'naviy barkamollikni belgilab beruvchi fazlatlarning namoyon bo'lishi	21	60	80
3	Ma'naviy barkamollikni belgilab beruvchi fazilatlarning namoyon bo'lishi	14	54	93
4	Ma'naviyat sohasida alohida faollik ko'rsata olishi	71	38	112

Tajriba sinov ishlarining yakunida erishilgan natijalar tajriba xamda nazorat guruxlariga jalb etilgan respondent talablarda ma'naviyatni shakllanganlik darajasi ko'rsatgichlari diagrammada quyidagicha aks etadi.



Yuqorida keltirilgan jadvallar va ular asosida tayyorlangan diagrammalardan ko'rinadiki, tajriba-sinov natijalari tajriba guruh talabalarida nazorat guruhlariga nisbatan ma'naviyatini shakllanganligini miqdoriy darajasi oshganligidan dalolat bermoqda.

Xulosa

Mamlakatimizda milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, ma'naviyat va ma'rifatni targ'ib qilish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqimiz ma'naviy merosini xolis, teran va izchil yoritishda targ'ibod, tashviqot qilishda ommaviy axborot vositalari alohida jonbozlik ko'rsatmoqda. Ommaviy axborot vositalari talaba-yoshlar ma'naviyatini boyitish va shakllantirishda muhim vositalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan ko'pgina ilmiy tadqiqotchilar izlanishlarida talaba-yoshlar ma'naviyatini shakllantirish, milliy g'oyani targ'ibot, tashviqot qilishda ommaviy axborot vositalarini rolini yoritib bermoqda.

Ommaviy axborot vositalari katta imkoniyatlarga ega bo'lib, turli xil fikrlar, rang-barang qarashlar va yondoshuvlarga yo'l ochib bermodda. Talaba-yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan kengroq foydalanishda oliy o'quv yurtlari bilan hamkorligini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Matbuot sahifalarida islom dini, an'analari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosi bo'lgan boy ma'naviy merosimizni o'rganish va tahlil qilishga muhim e'tibor berilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ma'naviy, ma'rifiy merosimizni xalqimiz, yoshlarimizga yetkazishda ommaviy axborot vositalarini xizmati katta bo'lmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonida ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanishga e'tibor kuchaymoqda, amaliy say'i-xarakatlar amalga oshirilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Oliy o'quv yurtlaridagi ma'naviy targ'ibot markazlarini ishini jonlantirish, o'tkaziladigan ma'naviy tadbirlarni hamkorlikda olib borishga katta e'tibor berilmoqda. Oliy o'quv yurtlari turli ijtimoiy institutlar bilan hamkorlikda ma'naviy ishlarni olib borishi talabalarni ma'naviy tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etishi amalda o'z isbotini topdi.

Oila va mahalla inson hayotida muhim rol uynaydi. Oliy o'quv yurti oila va mahalla hamkorligi talabalarni ma'naviy tarbiyalashda bo'shliqni oldini olish, ularni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va talabalarning muammolarini hal

qilishda, giyoxvandlik kabi salbiy illatlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahallaga hozirgi vaqtda keng imkoniyatlar yaratib berilgan bo'lib, o'z imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishi va o'z ishini samarali yo'lga qo'yishi kerak. Mahalla katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega ekanini hisobga olsak, o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, oilalar, ta'lim muassasalari bilan hamkorlikdagi faoliyatini izchil yo'lga qo'yishi, ular bilan yaqindan aloqa o'rnatishi zarur.

Sho'ni alohida ta'kidlash zarurki, oila va mahalladagi ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, oiladagi moddiy va ma'naviy, ruhiy, ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, mahallada faollari olib boriladigan ma'naviy targ'ibot ishlarini joylantirish lozim. Milliy ma'naviyatimizga xos bo'lgan hislatlarni shakllantirishda mahallaning o'rni muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.-Toshkent.: "O'zbekiston",-
2003.-13 b.
- 2.O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"
//Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: "Sharq", 1997.-39-
64 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-T.: "Ma'naviyat",
2008.-174 b.
- 4.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: "O'zbekiston",
2000.- 80 b.
- 5.Abduraxmonov M. Matbuot va targ'ibot: an'ana, yangilik va muammolar
//Milliy istiqlol g'oyasi targ'ibotining ilmiy asoslari mavzusidagi respublika ilmiy-
amaliy konferensiyasi materiallari.-T.: 2002.-36-38 b.
6. Abduquddusov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlashga integrativ
yondashuv.-T.: Fan, 2005.-157b.
7. Belyayeva A.P Integrasiya sodержaniya pфessional'no-texnicheskogo
obrazavoniya.-M.:Pedagogika, 1989.-254s.
8. Bezrukova V.S. Pedagogicheskaya integrasiya v obrazovanii: [http://
fio.imfo.ru/archive](http://fio.imfo.ru/archive) Sushnost sostav, mexanizm realizatsie// Integratsionnye processi
v pedagogicheskoy teorii i praktike. Sb. Nauch.tr.-Sverulovskaya, 1990.-s.5-25.
- 9.Jo'rayev R.H va b.q. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integrasiyalash.-T.:
Sharq, 2005.-80b.
- 10.Kondakov N.I. Logicheskiy slovar-spravochnik Integratsii v obrazovanii:
<http://www.twirpx.com/filr/953821>.
- 11.Zokirova K. Oilada farzandlarning komil shaxs bo'lib yetishishida
televideniyaning roli //Ta'lim tizimiga talaba-yoshlarning g'oyaviy-mafkuraviy
tarbiyasi va ularning uyg'unligini ta'minlashning dolzarb muammolari
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.-Samarqand.
SamISI, 2007. 71-73 b.

12. Ibragimov A, Sultonov X, Jurayev N. Vatan tuyg'usi.-T.: "O'zbekiston", 1996.-111 b.

13. Iskandarov E. Ochiq axborot sharoitida talaba-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari //Ta'lim tizimiga talaba yoshlarning g'oyaviy-mafkuraviy tarbiya va ularning uyg'unligini ta'minlashning dolzarb muammolari mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.-Samarqand. SamISI. 2007. 71-73 b.

14. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar.-T.: "Sharq", 1999.-14 b.

15. Maxmudova R.X. Yoshlar tarbiyasida ommaviy axborot vositalarining roli//Oliy ta'limda zamonaviy o'quv, ilmiy va tarbiyaviy faoliyatni takomillashtirish muammolari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya-materiallari.-Guliston, GulDU, 2006.-175-176 b.

16. Maxmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat.-T.: "Sharq", 2001.-9 b.

17. Maxmudov T. "Avesto" haqida.-Toshkent: Sharq, 2000.-63 b.

18. Medetova R.M. Formirovaniye tolerantnosti u shkolnikov v prosesse obespecheniya mejpredmetnoy preyemstvennosti//Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi jarayonida fanlararo uzviylikni ta'minlash muammolari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.-T.. 2009.-s.93-96.

19. Rashidov X.F., Abduquddusov O. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi samaradorligini oshirishda predmetlararo aloqalarni ta'minlash masalalari // umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi jarayonida fanlar aro uzviylikni ta'minlash muammolari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.-T.. 2009.-6-9b.

20. Ochilov N. Istiqlolning abadiy bo'lsin, jonajon Vatan // Turkiston gazetasi, 1-sentyabr.

21. Rejenov R, Karimov A. Milliy g'oyani yoshlarongiga singdirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni // Talaba yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy tafakkurini rivojlantirishning dolzarb muammolari.- Samarqand: SamDTQI, 2008. 170-171 b.

- 22.Sohibov A. Ommaviy axborot vositalari-ma'naviy axloqiy tarbiya minbari// Xalq ta'limi, 2008. 6-son. 142-149 b.
23. Sulaymonov A, Sulaymonova Z. Ma'naviyat maskanlarining tarbiyaviy imkoniyatlari // Xalq ta'limi, 2008. 2-son.-98 b.
- 24.Sovetskaya ensiklopedicheskiy slovar. M.: Sovetskaya ensiklopediya: 1984.-1599s.
- 25.Qurbonov Sh.E. Integrasiya professionalnogo obrazovaniya s naukoy i proizvodstvom. Metod. Razrabotka.-T.:TEJ, 1999.-115s.
- 26.Tyunikov Yu.S. Integrativnaya professionalno-pedagogicheskoy podgotovki uchashixsya k problemi pedagogicheskogo proyektirovaniya// Integracionniye processi v pedagogicheskoy teorii i praktike: texnologicheskiy aspekt.- Sverdlovsk: SIRI, 1991.-198 s.
27. Choriyev R.K Struktura prossesa integrasii teoriticheskoy i preticheskoy uchebnoy deyatelnosti // O'mumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi jarayonida fanlararo uzviylikni ta'minlash muammolari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.-T.: 2009.-s2003-2006.
- 28.Siseron. Ob obyazannostyax. M.: «Nauka» 1979. Str 99.